

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

YOQUB SAIDOV

O`ZBEK DIALEKTOLOGIYASI
(to`ldirilgan va qayta nashri)

O'zbek filologiyasi talabalari uchun o'quv qo'llanma

Buxoro

“Durdon” nashriyoti

2022

UO'K 811.512.133`28(075.8)

81.2O'zb-67

S 21

Saidov, Yoqub.

O'zbek dialektologiyasi [Matn] : o'quv qo'llanma / Y. Saidov.

- Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2022.

- 74 b.

KBK 81.2O'zb-67

Mazkur qo'llanmada o'zbek dialektologiyasining fan sifatidagi xususiyatlari, shakllanishi, o'zbek sheva, lahja, dilektlari va ularga xos sifatlar, shevalarning tarqalishi va tasnifi, fonetik, leksik hamda grammatik o'ziga xosliklari, o'zbek tilining asosiy shevalari, lahjalari va ularga xos belgilar tizimi, Mahmud Koshg`ariy va o'zbek dialektologiyasi, asosiy muammolari hamda hozirgi ahvoli, o'zbek shevalarining o'r ganilishi tarixi haqida ma'lumotlar berilgan. Ta'kidlash joizki, ushbu qo'llanmada o'zbek dialektologiyasi bo'yicha to'plangan tajribalar, mavjud qo'llanmalardagi materiallardan foydalanildi.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi yo'nalishi talabalari va o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Taqrizchilar: **G.Qurbanova**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
S.Avezov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Qo'llanma Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2019-yil 26-martidagi kengaytirilgan yig`ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN978-9943-5611-9-9

KIRISH. DIALEKTOLOGIYA FANI HAQIDA UMUMIY

MA`LUMOT

E‘tibor qaratiladigan masalalar:

- Kursning talab va maqsadalri;
- Dialektologiya fani haqida umumiy ma`lumot;
- Dialektologiya fanining o`rganish ob`ekti;
- Bugungacha yaratilgan dialektologik tadqiqotlar haqida ayrim malumotlar.

Tayanch tushunchalar: o’zbek tili, dialect, sheva, lahja, adabiy til, me’yor, qarluq-chigil-uyg`ur, qipchoq, o’g`uz.

Dialektologiya fani tilshunoslikning bir sohasi bo’lib, u mahalliy sheva va lahjalarning o’ziga xos muhim xususiyatlari, ularning adabiy tildan va o’zaro bir-biridan farqlari, shevalarning adabiy tilga munosabati, adabiy tilni boyitishidagi ahamiyati, shevalarning tarmoq va guruhlari, ularning rivojlanish bosqichlari tarixi va shu kabi masalalarni o’rganadi. *Dialektologiya* grekcha *dialektos* so’zidan olingan bo’lib, biror tilning mavjud sheva va lahjalarini o’rgatadi. *Dialekt* — sheva, *logos* — ta’limot, ya’ni sheva haqida ta’limot demakdir. Dealektologiya fanining obyekti mahalliy sheva va lahjalar bo’lib, vazifalari quyidagilardan iborat:

- shevalarning fonetik, morfologik, sintaktik va xususiyatlarini har tomonlama tasnif qilish;
- milliy tilning shakllanishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o’rnini va shu milliy tilga asos bo’lgan shevalarni aniqlash;
- shevalarning o’zaro munosabatini va ularning adabiy tilga bo’lgan munosabatini belgilash;

- o'xhash xususiyatlari ko'ra shevalarning tarqalish xududlarini aniqlash;
- umumiy o'xhash lingvistik xususiyatlarni belgilash asosida shevalarning xarita va atlasini tuzish;
- alohida guruhga kiruvchi shevalarning umumiy tomonlari va o'xhashliklari bilan birga, o'zaro farqlanuvchi tomonlari va buning sabablarini ochib berish;
- o'zbek tilining ko'p shevali ekanligining tarixiy sabablarini aniqlash;
- maktab o'quvchilari nutqida, turli yozma ishlarda uchraydigan mahalliy sheva xususiyatlari va ularni bartaraf etish yo'llari hamda usullarini ishlab chiqish, uni amalga oshirish.

O'zbek dialektologiyasida mavjud bo'lgan ilmiy adabiyotlarda sheva, lahja va dialect atamalari turli ma'nolarda qullanib kelinmoqda. Vaholanki, bu atamalarning ma'nosi bir-biridan deyarli katta farqqa ega emas.

«Sheva» atamasi forscha so'z bo'lib, *ovoz*, *til*, *so'zlashish*, *odat*, *yo'sin*, *ravish* kabi ma'nolarni ifodalab, biror bir tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari ega bo'lgan eng kichik qismidir. *Lahja* (arabcha so'z bo'lib, *ifoda*, *so'z*, *sheva*, *ovoz* kabi ma'nolarni ifodalaydi) shu xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yiindisidir. Masalan, o'g'uz lahjasi, qipchoq lahjasi kabi. Mazkur atama ba'zan tor ma'noda, ya'ni sheva ma'nosida qo'llanilishi ham uchraydi. Masalan, *Vodil qishloq lahjasi haqida bir necha so'z* kabi.

Dialekt shevaga nisbatan keng ma'noda qo'llaniladi. Adabiy tildan o'zining ba'zi bir xususiyatlari (chunonchi, fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari) bilan farqlanadigan biror umummilliy tilning yirikroq bo'lagi *dialekt* deb yuritiladi. U tilning eng kichik bo'lagi sanalgan shevalarning bir

qanchasini o'z ichiga oladi, ya'ni u shevalar yiindisidan tashkil topadi. Masalan, *qirq, saroy, jo'sh, nayman, qo'nirot, qipchoq qoraqalpoq, baxmal, ming, burgut* kabi shevalar birlashib, o'zbek tilining *qipchoq* dialektini tashkil qiladi. Lekin ba'zan dialekt atamasining tor ma'noda, ko'pincha sheva ma'nosida *qo'llanilishi* ham uchraydi: *Buxoro dialekти* kabi.

Makonni o'rganish nuqtai nazardan dialektologiya ikki xil bo'ladi: 1) tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya; 2) tarixiy dialektologiya. Tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya mahalliy sheva va lahjalarga xos fonetik va leksik, morfologik xususiyatlarni qayd etadi, yozib oladi va ularni kartaga tushiradi. Tarixiy dilektologiya tilning dialektal xususiyatlari bilan birga, shu xususiyatlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, turli davrlarda o'zgarish, qardosh tillar bilan munosabati va shu shevalarning tashkil topishida qardosh va qardosh bo'lмаган tillarning ishtiroki kabilarni o'rganadi. Keyingi yillarda barcha o'zbek shevalarini areal va lingvogeografik usullar bilan o'rganish ham tarixiy maqsadlarni ko'zda tutadi.

Dialektologyaning shevalarni o'rganishi esa til tarixi uchun ham, xalq, tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Chunki, adabiy tilda allaqachonlar yo'q bo'lib ketgan yoki o'zgarishga uchragan so'zlar, ayrim grammatik shakllar mahalliy shevalarda saqlanib qolganligi tabiiy. Ularni topib adabiy tilga olib kirish yoki uni boyitish juda muhimdir. O'zbek dialektologiyasi o'zbek tili tarixidagi ayrim noaniq, masalalarni oydinlashtirish, hal qilish uchun asosiy manba beradi. Qadaimgi o'zbek yozma yodgorliklari tilining biz uchun noaniq, (gumonli) bo'lган ayrim xususiyatlarini hozirgi o'zbek shevalari materiallari yordamida aniqlashimiz va to'ldirishimiz mumkin. Shevalarni o'rganish o'zbek adabiy tilining fonetik, leksik-grammatik me'yorlarini belgilash, orfografiya va orfoepiyasini to'xtamlashtirish uchun katta yordam beradi. Shevalarni o'rganish orqali o'tmishdagi urug-qabilalarining joylashish hududlarini aniqlash, etnonimlar, toponimlar,

gidronimlar, umuman onamastika (nomlar) vositasida xalq, tarixining ayrim mavhum tomonlarini yoritish mumkin. Shu jihatdan, dialektlarni o'rganish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga egadir.

O'zbek dialektologiyasi tilshunoslik fanlaridan biri sifatida, avvalo, «Hozirgi o'zbek tili» fani nazariy ma'lumotlariga tayanadi, qolaversa, «Qadimgi turkiy til», «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi», «O'zbek adabiy tili tarixi» fanlariga ham asoslanuvchi ma'lumotlarni beradi, hamda ularning nazariy va amaliy materiallariga asoslanadi. To'g`ri, tilshunoslikning bu fanlari o'quv rejalaridan keyingi kurslarda joy olgan, demak bu fanlar bo'yicha nazariy, amaliy ma'lumotlarni olish o'zbek dialektologiyasi bo'yicha tegishli mavzularni mustaqil tayyorlash jarayonida, ulardan qo'shimcha ma'lumotlar olish chog`ida o'rganib boriladi.

O'zbek dialektologiyasi geografiya fani bilan uzviy aloqador, ya'ni har bir sheva haqida ma'lumot to'planganda, shu sheva vakillari joylashgan territoriyaning ko'lami, aholining miqdori, shu territoriya iqlimi va boshqa ma'lumotlar ham to'planadi, ya'ni geografik muhiti ham yoritiladi. Shuningdek, o'zbek dialektologiyasi o'zbek xalqi tarixi, adabiyoti, etnografiyasi, san'ati fanlarining ma'lumotlariga ham tayanadi va ular uchun boy material beradi.

O'zbek dialektologiyasi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik bo'lgan fandir. Bu fan bo'yicha olingan nazariy bilimlar keyingi kurslarda o'tiladigan fanlarga nazariy asos bo'lib xizmat kilsa, ayni zamonda, til va adabiyot o'qituvchilarini o'zbek shevashunosligi bilimlari bilan qurollantirib, o'z faoliyatida dialektal xatolar ustida ishlash uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi, ya'ni o'quvchilarning yozma va og`zaki nutqida uchraydigan dialektal xatolarning manbalarini belgilab, to'g`ri yo'l tanlashga yordam beradi.

Umumxalq tilning ikki tarmoi mavjud: adabiy til va jonli til. Adabiy til – tarixan shakllangan, asos e'tibori biln umumxalq tilining so'z ustalari tomonidan ijodiy boyitilgan va qayta ishlangan, sayqal berilgan, me'yoriy va

jamiyatda kishi faoliyatining hamma sohalari bilan bolangan badiiy-publitsistik, ilmiy adabiyot tilidir. Adabiy til grammatik qurilishi va luat tarkibi jihatidan me'yorashtirilgandir. Adabiy til so'zlarni qonun-qoidaga muvofiq so'z ma'nosidan kelib chiqib, morfologik va sintaktik xususiyatlarga ko'ra, orfografik va orfoepik xususiyatlarni hisobga olib me'yorashtiradi. Sheva esa ma'lum xududdagi aholining suzlashuv tilidir. U yozuv bilan maxsus ta'minlanmagani, ma'lum me'yorga tushurilganligi, qoidalashtirilmaganligi, qo'llanish doirasining cheklanganligi bilan farqlanadi. Adabiy me'yor – ongli aralashish orqali qayta ishlangan, tanlangan baholangan xususiyatlardir. Leksik, fonetik, orfoepik, orfografik, grammatik me'yorlar mavjud.

O'zbek adabiy tili o'zining dastlabki davridan boshlab, o'z taraqqiyotining hamma bosqichlarida lahja va shevalar bilan o'zaro aloqada bo'lib kelgan. Bunda adabiy til, bir tomondan, shevalarga faol ta'sir ko'rsatadi, ikkinchi tomondan, ular hisobidan boyib boradi. Bu jarayon hozir ham davom etmoqda.

Bugungacha yaratilgan dialektologik tadqiqotlar haqida ayrim ma'lumotlar. O'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab dialektizmlarning badiiy asar tilidagi semantik-stilistik xususiyatlari o'rganila boshlandi¹. Ma'lumki, o'zbek, umuman, turkiy xalqlarning ildizlari meloddan oldin Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan mahalliy tub qabila va urug`lar — qarluqlar, o'g`uzlar, qipchoqlarga borib taqaladi. Har bir turkiy xalq va uning tilining shakllanishida bu urug`larning biri asos bo'lgan (masalan, o'zbeklarning shakllanishida qarluq urug`lari asos bo'lgan). O'zbek xalqi va tilining shakllanishida qarluq urug`lari bilan qipchoq hamda o'g`uz

¹ Назиржонова Ф. Миртемир шеъриятида диалектизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. – №1. –Б. 82-84; Файзулаев Б. Диалектизмлар ва уларнинг бадиий адабиётдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1977. –№4. – Б. 34-38; Йўлдошев Б. Сайд Ахмад асарларида диалектизмларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. –Самарқанд, 1979. – Б. 29-34; Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. –Тошкент: Фан, 1982. –Б. 53-57. Охунов Н.Faфур Ғулом асарларида диалектизм ва эскирган сўзларнинг кўлланилиши // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2003. –№4. –Б. 37-40 ва бошқ.

urug`larining ham hissasi bor. Shuning uchun mazkur urug`larning tarixi va tilini o'rganish muhim vazifalardan biridir.²

Turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatlari, o'xshash va farqli jihatlari, o'zaro ta'siri masalalari uzoq davlardan beri o'rganilib kelinmoqda. Mazkur masalalarni ilk o'rgangan olim Mahmud Koshg`ariy bo'lib, uning «Devonu lug`otit turk» asarida turkiy tillar, ularning shevalari, chunonchi, o'g`uz tillari va shevasiga oid talaygina ma'lumotlar uchraydi³. U fonetik va morfologik xususiyatlarni hisobga olib, turkiy tillarni ikki guruhga bo'ladi:

1. Chigil, yag`mo, tuxsi, qarluq, uyg`urlardan boshlab, yuqori Chingacha bo'lgan qabilalar tillari (fanda nisbiy tarzda sharqiy guruh tillari deb atash me'yorlashgan).

2. O'g`uz, arg`u, qipchoq, tatar, yamak, suvor va rusdan Vizantiyagacha joylashgan qabilalar tillari (fanda nisbiy tarzda sharqiy guruh tillari deb atash me'yorlashgan).⁴

Mahmud Koshg`ariy mazkur guruh tillarining fonetik va morfologik xususiyatlarini misollar asosida izohlaydi. Masalan, Sharqiy turklar tilida jarangsiz *t* tovushi kelsa, G`arbiy turklar tilida *d* tovushi keladi: *tuya-duya* kabi.

O'g`uz lahjasiga oid xususiyatlar juda ko'p olimlar tomonidan o'rganilgan. Chunonchi, G`ozi Olim Yunusov («O'zbek lajhalarining tasnifida bir tajriba», 1936)⁵, V.V.Reshetov (Sh.Shoabdurahmonov bilan hammualliflikda chop etgan «O'zbek dialektologiyasi» darsligida, 1978)⁶, F.Abdullaev («O'zbek tilining

²Абдураҳмонов Ф. Ўзбек ҳалқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. –Тошкент: 1999. –Б. 5, 14.

³Кошғарий М. Девону луготит турк (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов). Т. I-II-III. – Тошкент: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. –529 б.; Т. II. 1961. – 488 б.; Т. III. 1963. – 468 б.

⁴Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи, 1996. -14 б.

⁵ Фози Олим Юнусов. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. –Т.: Ўздавнашр, 1935. (лотин алифбосида).

⁶ Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.

o'g`uz lahjasisi», 1978; «O'zbek tilining Xorazm shevalari», 1964)⁷, Yu.Jumanazarov («Hazorasp shevasining morfologik xususiyatlar», 1961)⁸, A.Ishaev («Qoraqalpog`istondagи o'zbek shevalari», 1977)⁹, A.Ahmedov («O'zbek adabiy tili tarixida o'g`uz unsur va ko'rinishlarining qo'llanishi», 2006)¹⁰ va boshqalar mazkur lahjani tadqiq etgan. O'g`uz shevasiga xos xususiyatlar ayrim darslik, qo'llanma va tadqiqotlarda ham o'z ifodasini topgan.¹¹

G`ozi Olim Yunusov o'zbek shevalarini uchta katta guruhga ajratadi: 1) o'zbek-qipchoq shevalari; 2) turk-barlos shevalari yoki «chig`atoy» shevalari; 3) Xiva-Urganch shevalari. Olim Xiva-Urganch shevalarining fonetik xususiyatlari bo'yicha quyidagilarni yozadi: «Xiva shevasi ... o'zining tovush uyg`unligining saqlanganligi va uzun unliligi bilan ajraladi. Xiva shevasida til o'rta *k*, *g* tovushlarining bo'lubi, va *k* o'rnida *g* ishlataluvi diqqat etadigan fonetik xususiyatlardandadir».¹²

V.V.Reshetov o'g`uz lahjasining ayrim xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi: qaratqich kelishigi formasining *-y়ing* // *-ing* shaklida ishlatalishi; jo'nalish kelishigining *-ə / a* shaklida ishlatalishi; *bol* fe'lidagi *b* ning tushishi kabilar¹³.

Y.Jumanazarov Hazorasp shevasining morfologik xususiyatlarini Honqa, Qirq, Toshkent shevalari, turkman tili va eski o'zbek tili bilan qiyosan tahlil etadi. Masalan, mazkur shevada hozirgi zamon fe'li *gəryat'rman* tarzida ifodalansa,

⁷ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Т.: Фан, 1978; Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. –Т.: Фан, 1964.

⁸ Жуманазаров Ю. Ҳазорасп шевасининг морфологик хусусиятлар. –Т.: Фан, 1961.

⁹ Ишаев А. Қорақалпогистондаги ўзбек шевалари. –Т.: Фан, 1977.

¹⁰ Аҳмедов А. Ўзбек адабий тили тарихида ўғуз унсур ва кўринишларининг қўлланиши: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. –Самарқанд: СамДУ, 2006. -26 б.

¹¹ Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т: Абдулла Қодирий номидаги ҳалқ мероси, 2004. -Б. 99-109; Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро шеваси. –Т.: Фан, 1969 –Б. 21-27; Шамсуддинов И. Қорқўл шеваси лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. –Т.: Фан, 1966. –Б. 430-439 ва бошк.

¹² Гози Олим Юнусов. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. –Т.: Ўздавнашр, 1935. (лотин алифбосида). -Б. 22.

¹³ Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978. – Б. 42.

Toshkent shevasida esa *korvamman* tarzida aytildi. Yoki Hazorasp shevasida kelasi zamon fe'li *aljaqman* turkman tilida *men aljaq* tarzida ifodalanadi.¹⁴

Xorazm shevalarini maxsus tadqiq etgan F.Abdullaev turkiy tillarning tasnifida ham, aniq bir tilning shevalarini tasnif qilishda ham yolg`iz leksik materialga asoslanish kutilgan natijani bermasligini, faqat tilning bshqa yaruslari (fonetika, morfologiya, sintaksis) bo'yicha to'plangan materiallar bilan birlgiligidagina ilmiy jihatdan ishonarli biror xulosaga kelish mumkin bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Olim bu fikrni turkiy tillar bo'yicha A.N.Baskakov tasnifiga e'tiroz bildirib aytadi. Ma'lumki, A.N.Baskakov turkiy tillarni, asosan, leksik xususiyatlarini hisobga olib tasnif etgan.

F.Abdullaev o'g`uz lahjasining leksikasini ozarbayjon va turkman tili, qipchoq lahjasini va o'zbek adabiy tili bilan qiyosiy tarzda o'rghanadi. O'rni bilan eski o'zbek adabiy tili manbalariga ham murojaat etadi. Xorazm shevalarida *arvig`* (pok, toza), *oram* (ko'cha), *kəlk* (ot-ulov), *tuñ* (mis ko'za) kabi so'zlar eski o'zbek adabiy tili yodgorliklari tilida mavjudligini aytib o'tadi. Olim o'g`uz lahjasiga oid qirqdan ortiq baliq turlarining nomini aniqlagan, shulardan faqat besh-oltitasigina o'zbek adabiy tilida mavjudligini ta'kidlaydi. Tadqiqotda baliq nomlarining yigirma beshtasining nomi va izohi qayd etilgan. Shuningdek, ishda baliq ovi bilan bevosita bog`lik o'g`uz shevasiga oid leksik birliklar ham tahlil etilgan.

F.Abdullaev turkiy tillar leksikasini tarixiy-qiyosiy aspektida o'rghanish, birinchi navbatda, urug`dosh tillar bo'yicha, ayniqsa, jonli shevalar bo'yicha mukammalroq faktik materiallar to'plash lozim, deb hisoblaydi. Tadqiqotiga qarindosh-urug` nomlari (*əkiz* — egizak; *bəvək* — chaqaloq kabi); uzvlar nomi (*ərn* — lab; *bag`ır* — jigar; *bur't/mur't* — mo'ylov kabi), odam va uning hayoti, tirikchiligi bilan bog`liq so'z-terminlar (*alchaq* — chaqqon, qobiliyatli, uddaburo; *ig* — og`riq; *idə* — jiyda kabi) lug`atini ilova qiladi.

¹⁴Жуманазаров Ю. Ҳазорасп шевасининг морфологик хусусиятлар. –Т.: Фан, 1961. –Б. 28.

A.Ahmedov «O'zbek adabiy tili tarixida o'g`uz unsur va ko'rinishlarining qo'llanishi» tadqiqotida *o'g`uz unsur (element)lari* va *o'g`uz ko'rinishi* terminlarini qo'llaydi va bu terminlar ifodalaydigan tushunchalarga izoh beradi. Uning fikricha, *o'g`uz unsur (element)lari* turkiy tillarning tipologik xususiyatlariga ko'ra o'g`uz guruhiga xos bo'lgan, biroq o'zbek adabiy tilida shu ko'rinishda me'yorlashgan hodisadir. *O'g`uz ko'rinishi* esa o'zbek yozma manbalarida me'yoriy qarluqcha shakllar bilan yonma-yon o'g`uzcha lisoniy hodisalarning qo'llanishidir. Unsur va ko'rinish kat'iy tarixiy tushuncha bo'lib, ma'lum bir davrda ko'rinish bo'lgan hodisa boshqa bir davrda unsur bo'lishi mumkin yoki ma'lum bir davrda unsur bo'lgan hodisa boshqa bir davrda ko'rinish bo'lishi mumkin. Jumladan, *demoq* o'g`uzcha unsuri XIII-XVIII asrlarda o'g`uzcha ko'rinish edi, hozirgi o'zbek adabiy tili uchun esa bu o'g`uzcha unsur mavqeini egalladi.¹⁵

Ma'lumki, F.Abdullaevning «XV asr o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari masalalari» asarida o'zbek adabiy tilida o'g`uz ko'rinishlarining saqlanishiga asosiy sabablardan biri aruzga asoslangan o'zbek nazmining vazn va qofiya talablari ekanligi qayd etilgan. A.Ahmedov ana shu fikrga asoslanib o'zbek yozma yodgorliklari tilidagi o'g`uz unsur va ko'rinishlarini tahlil etadi va XV-XIX asr o'zbek nazmida o'g`uz unsur va ko'rinishlari, asosan, vazn va qofiya talablari asosida qo'llanilgan, degan xulosani beradi¹⁶.

Tadqiqotlarda o'g`uz lahjasи va shevasining eng muhim fonetik xususiyatlari sifatida quyidagilar ifodalangan: 1) juft unlilar mavjud, *i* (til oldi) va *ı* (til orqa), *e* (til oldi) va *o* (til orqa), *a* (til orqa) va *ə* (til oldi) mustaqil fonemalardir; 2) qisqa va cho'ziq unlilar farqlanadi, ularning miqdori o'n etti-o'n sakkizta: *at* — *a:t*, *ot* — *o:t* kabi; 3) so'z boshida *t* va *k* tovushlari jaranglashadi: *dil* (til), *gel* (kel) kabi; 4) singarmonizmning uch qonuniyati ham amal qiladi; 5) «bo'l» fe'lining boshidagi *b* tovushi tushib qoladi; 6) sonor *m*

¹⁵ Ўзса асап, 9-6.

¹⁶ Ўзса асап, 14-6.

fonemasi o'rnida *b* fonemasi bo'ladi: men — *ben*, ming — *bing* kabi; 7) ayrim so'zlarda portlovchi, jarangli *b* tovushi o'rnida sirg`aluvchi, jarangli *v* tovushi qo'llaniladi: bor — *var*, ber — *ver* kabi; 8) tor unlilardan oldin til o'rta y tovushi tushib qoladi: yil — *il*, yilon — *ilon* kabi va h.k.

O'g`uz lahjasi va shevasining eng muhim morfologik xususiyatlari sifatida esa quyidagilar ifodalangan: 1) kelasi zamon shakli *-jak* / *-jək* qo'shimchasi bilan ifodalanadi; 2) istak fe'li shakli *-li* qo'shimchasi bilan ifodalanadi; 3) qaratqich kelishigi qo'shimchasi undosh bilan tugagan so'zlardan keyin *-ыиң* // *-иң* shaklida ishlatiladi: *qolыиң* (qo'lning), *gөмириң* (ko'mirning) kabi; 4) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-a* / *-ə*, *-na* / *nə* shakllari bilan qo'llaniladi: *qolыма* (qo'limga), *gөмира* (ko'mirga), *yuzина* (yuziga) kabi; 5) sanoq sonlarda geminastiya yo'q: *iki* (ikki), *sakiz* (sakkiz) kabi va boshqalar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'g`uz tillari (yoki G`arbiy turk tillari) va shevalarining o'zbek adabiy tilining shakllanishi hamda taraqqiyotidagi o'rnini to'g`ri baholash, ularning muhim til xususiyatlarini tadqiq etish, o'g`uz shevalari materiallarini to'plash, izohlash, yangi o'zbek adabiy tili davri va hozirgi o'zbek adabiy tilida mazkur sheva elementlarining qo'llanish sabablarini tahlil etish o'zbek tilshunosligi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbek dialektologiyasi fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ?
2. Sheva, dialekt, lahja atamalari haqida ma'lumot bering.
3. Dialektologiya fannning o'rganish obyektini ayting ?
4. Shevalar qaysi usullar asosida o'rganiladi?
5. Adabiy til va sheva nima, ularning munosabatini ayтиб bering.

Adabiyotlar:

- Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.
- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар.1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.
- Ўзбек шевалари морфологияси. -Т.: Фан, 1984.
- Ўзбек шевалари лексикаси. -Т.: Фан, 1966.
- Ўзбек шевалари лексикаси. -Т.: Фан.1991.
- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи,1996.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқики. -Т.: Фан, 2005.

O'ZBEK SHEVALARINING O'RGANILISHI TARIXI

E' t i b o r q a r a t i l a d i g a n m a s a l a l a r:

- XX asirning boshlarida o`zbek shevalarining o`rganilish holati;
- Shevashunoslikning o`tkan asr 60-90-yillardagi revojlanishi;
- Shevashunoslik fanining istiqloldan keyingi davrdagi taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: tasnif, «Chiatoy gurungi», sheva, xususiyat.

O'zbek xalq shevalarini o'rganishga qiziqish va uning tasnifi masalalari XIX asrning oxirlariga kelib, ancha kengaya bordi. XX asrning 20-30-yillarda esa bu ishlar ancha kuchaydi. O'zbek shevalarini tekshirishda va o'zbek shevashunosligining lingvistik fan sifatida tashkil topishida «Chiatoy gurungi», E.D.Polivanov, G`ozi Olim Yunusov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, U.Tursunov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullahayev, A.Aliyev, M.Mirzayev kabi olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

Fitrat tomonidan tashkil etilgan «Chiatoy gurungi» (guruh, to'garak 1918-1929) madaniy tashkilot bo'lib, u til, imlo va alifbo masalalari bilan shug`ullangan. O'zbek shevalarini o'rganishda bu guruh o'z davrida ancha faollik ko'rsatgan.

Yevgeniy Dmitrievich Polivanov – 1892-yil 28-fevralda Smolensk (Rossiya) shahrida tug`ilgan. U 1920-1930-yillar mobaynida O'zbekistonda yashaydi va shahar va qishloqlarga ko'plab ekspeditsiyalar uyushtirib, o'zbek xalqining, hayoti, madaniyati, tili va adabiyotiga oid qimmatbaho materiallar to'playdi, ularni yiqqan holda o'nlab tadqiqot asarlari yaratadi. Y.D.Polivanov o'zining «O'zbek tilining qisqacha grammatikasi» (I va II qsimlari, 1926), «O'zbek tilini o'rganishga kirish» (I-chiqishi, 1925), «O'zbeklarning etnografik xarakteristikasi» (I chiqishi, 1926), «O'zbek tili grammatikasidan materiallar» (I-chiqish, 1935), «O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili» (1933) kabi katta hajmdagi ilmiy asarlari va «Toshkent dialektining fonetik sostavi» (1924), «Samarqand shevasi» (1928), «Qozoq-nayman shevasi» (1931) singari maqolalarida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan. Buyuk turkologlar – V.V.Reshetov, K.K.Yudaxin kabilar shu olim qo'lida o'qiganlar. Atoqli olim 1928-yilda Bishkek shahrida vafot etadi.

Birinchi o'zbek lingvisti professor **G`ozi Olim Yunusov** 1893-yilda Toshkent shahrida tug`ilgan. Boshlang`ich ma'lumotni Toshkentda olib, 1912-

yilda Misrga boradi va u yerda o'qiydi; so'ngra o'qishni 1914-yilda Turkiyaga ko'chiradi.

Gozi Olim Yunusov 1930-yilda tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiyaga rahbarlik qiladi. Bu ekspeditsiya tarkibida taniqli olimlar, jumladan, E.D.Polivanov, Hodi Zarifov, H.Q.Ramazonov kabilar bor edi.

G`ozi Olim Yunusov o'zining ilmiy lingvistik, adabiy, ijtimoiy faoliyati davomida ko'plab ilmiy kitob va qo'llanmalar yaratdi. Uning «O'zbek lajhalarini tasnifida bir tajriba» (1936), «O'zbek urug`laridan qatag`onlar va ularning tili» (1930), «O'zbek tili grammatikasi» (1936, qo'lyozma) kabi kitoblari fan taraqqiyotiga ma'lum bir hissa bo'lib qo'shildi. «Alpomish» dostoni shu olim tomonida 1922-yilda birinchi bo'lib yozib olingan. Olim 1939-yilda vafot etgan.

Konstantin Kuz'mich Yudaxin – 1890-yil 31-mayda Orsk (Rossiya) shahrida tug'iladi. Uning yoshligi Jambul (Avliyoota)da o'tadi. Toshkentdag'i o'qituvchilar seminariyasiga o'qishga kiradi. U yerda u o'zbek, qozoq, qirg`iz, uyg`ur va fors-tojik tillarini mustaqil o'rghanadi. 1910-yilda seminariyani tugatgandan so'ng u 10 yil davomida Turkistonning Mankent va Qorabuloq qishlolarida o'qituvchilik qiladi.

Professor K.K.Yudaxin. 1927-yilda «Qorabuloq shevasining ba'zi bir xususiyatlari» haqida tadqiqot ishi yozadi. Uning «Vodil qishlog`ining lahjasи haqida bir necha so'z» (1927), «Chig`atoy tilining tovushlar sostavi masalasiga doir» (1929), «O'zbek tili» (1939) kabi asarlari mavjud. Olim 1964-yilda vafot etadi.

Aleksandr Konstantinovich Borovkov – 1904-yilning 16-martida Toshkent shahrida tug'ilgan. U umrining oxirigacha turkologiya sohasida, jumladan, o'zbek xalqining madaniyati, adabiyoti, tili xususida tadqiqot ishlarini olib bordi. U o'z hayoti davomida 150 dan ortiq monografiyalar,

darsliklar, ilmiy maqolalar yozdi: «Qorachoy-bolqor tili» (1932), «O’zbek adabiy tili» (1934), «O’zbek tilining yangi orfografiyasi haqida» (1939), «Alishyer Navoiy» (1940), «A.Navoiy o’zbek adabiy tilining asoschisi sifatida» (1946), «O’zbek shevalarining tasnifi masalasi» (1953), «XII-XIII asrlar O’rta Osiyo tafsiri leksikasi» (1958) kabilar shular jumlasidandir. Olim 1962-yilda vafot etgan.

O’zbek tilshunosligi rivojiga munosib hissa qo’shganlardan biri – atoqli olim **Viktor Vasilyevich Reshetov**dir. U 1910-yil 23-martda Toshkent shahrida tug`ilgan. Olim 1940-yilda «O’zbek tilining Marg`ilon shevasi» degan mavzuda nomzodlik va 1952-yilda esa «Ohangaron vodiysining qurama shevalari» degan mavzuda doktorlik dissyertatsiyalarini yoqladi. «O’zbek dialektologiyasi» darsligining hammuallifidir.

Fattoh Abdullaev – 1914-yilning martida Namangan shahrida tug`ilgan. U 1946-yilda «O’zbek tilida arabizmlar» mavzuida nomzodlik dissyertatsiyasini, 1962-yilda esa «Xorazm shevalari» degan mavzuida doktorlik dissyertatsiyasini yoqladi. Uning o’zbek tili tarixi, dialektologiyasiga bag`ishlangan «Eski o’zbek tili» (1959), «Xorazm shevalari» (1961) kabi monografiyalari bosilib chiqqan.

Shonazar Shoabdurahmonov 1923-yilda Toshkent shahrida tug`ilgan. U ko’p yillar davomida «O’zbek adabiy tili va o’zbek xalq shevalari» mavzuida ilmiy ish olib bordi va uni 1963-yilda doktorlik dissyertatsiyasi sifatida yoqladi.

Sh.Shoabdurahmonov. o’zbek tilshunosligining turli sohalari bo'yicha 60 dan ortiq ilmiy tadqiqot ishlari, maqolalar yozdi. U «O’zbek dialektologiyasi» (1959, V.V.Reshetov bilan hamkorlikda), «O’zbek dialektologiyasi» (1961, V.V.Reshetov bilan hamkorlikda), «O’zbek dialektologiyasi» (1978, V.V.Reshetov bilan hamkorlikda) darsligini nashr ettirdi.

Bolta Jo'raev 1928-yilda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida tug`ilgan. 1959-yilda «O'zbek tilining Shaxrisabz shevasi» bo'yicha nomzodlik dissyertatsiyasini yoqlagan. O'ndan ortiq shevashunoslikka oid ilmiy ishlari mavjud: «Shahrisabz shevasi» (1964) monografiyası, «O'zbek adabiy tili va o'zbek dialektlari» (1963) broshyuralari shular jumlasidandir.

Mustaqim Mirzayev 1912-yilda Buxoro shahrida tug`ilgan. 1952-yilda «O'zbek vaqtli matbuotida sovet-baynalminal so'zlar» nomli nomzodlik dissyertatsiyasini (Reshetov rahbarligida) himoya qilgan bo'lsa, 1963-yilda «O'zbek tilining Buxoro gruppa shevalari» nomli doktorlik dissyertatsiyasini muvoffaqiyatli himoya qildi. 1969-yilda shu nomli monografiyası e`lon qilindi.

Mustaqillik yillarida o'zbek xalq shevalarini o'rganishga e'tibor ancha kuchaydi. Buning o'ziga xos qator ijtimoiy-siyosiy sabablari mavjud. O'zlikni anglash, tarixni chuqur bilish, adabiy tilni taraqqiy ettirish, uning leksik tarkibini ichki manba asosida boyitish zaruriyati sheva xususiyatlarni atroflicha tadqiq etishni talab etmoqda. Shu bois so'nggi yillarda tilshunos olimlarimiz tomonidan o'zbek xalq shevalarini o'rganishga oid salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ular jumlasiga N.Rajabovning "O'zbek shevashunosligi" darsligi, K.Nazarovning "O'zbek xalq shevalarida egalik affikslari", N.Murodovaning "O'zbek tilining Navoiy viloyati shevalari" nomli doktorlik va R.Yo'ldoshevning "Toshhovuz viloyatidagi o'zbek shevalarining leksik xususiyatlari" nomli nomzodlik dissyertasiyalarini misol qilib keltirish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

- 1.XX asirning boshlarida o`zbek shevalarining o`rganilish holati haqida so'zlab bering?
- 2.Shevashunoslikning o`tkan asr 60-90-yillardagi revojlanishi holati haqida nimalarni bilasiz?

3.Shevashunoslik fanining istiqłoldan keyingi davrdagi taraqqiyoti holati haqida so'zlab bering?

Adabiyotlar:

- Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.
- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар.1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.
- Ўзбек шевалари морфологияси. -Т.: Фан, 1984.
- Ўзбек шевалари лексикаси. -Т.: Фан, 1966.
- Ўзбек шевалари лексикаси. -Т.: Фан.1991.
- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи,1996.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқики. -Т.: Фан, 2005.
- www.turk_dili.google.com.tr
- www.dersimiz.com

**TURKIY TILLAR VA LAHJALARINI O'RGANISHDA MAHMUD
KOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARINING
AHAMIYATI**

E ‘tibor qaratiladigan masalalar:

- Mahmud Koshg`ariy va uning “Devoni lug`otit turk” asari xususida;
- Mahmud Koshg`ariyning turkiy dialektlar haqidagi qarashlari;
- “Devoni lug`otit turk” asari va turkiy tillarni qiyosiy o’rganish metodi;
- “Devonu lug`otit turk” asarining tuzilishi;
- “Devonu lug`otit turk” asaridagi etnonimlar;
- “Devoni lug`otit turk” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: «Devonu lug`otit turk», tovush, harf, lug`at, qadimgi turkiy so’zlar.

Turkshunoslik ilmining asoschisi Mahmud Koshg`ariy ibn Husayn ibn Muhammad ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan qoraxoniyalar sulolasiga mansub bo’lib, otasi Xusayn ibn Muhammad o’sha davrdagi Barsg`an eliga amirlik qilgan. Koshg`ariy boshlang`ich ma’lumotni o’z qishlog`ida, yuqori ma’lumotni Koshg`ar madrasalarida olgan, arab, fors va turkiy tilni puxta egallagan. So’ng u Buxoro, Samarcand, Marv va Nishopur shaharlarida bilimini oshirgan.

Mahmud Koshg`ariy 1056-1057-yillarda mamlakatdagi ichki nizolar sabab o’z vatanini o’n besh yil davomida tark etishga majbur bo’ladi. Ana shu yillarlarda u turkiy xalqlar yashaydigan o’lkalarni kezib, bu yerlardagi turkiy qabila va urug`lar, ularning kelib chiqishi va nomlanishi, joylashish o’rinlari. urf-odatlari, ayniqsa, til xususiyatlarini sinchiklab o’rganadi. So’ng Bag`dodga borib, ancha vaqt shu shaharda ijod qiladi.

Mahmud Koshg`ariy taxminan 1080-yillarda vataniga qaytib kelib, O’paldagi Aziq qishlog`ida, Hazrati Mullom tog`i etagidagi tepalikda joylashgan madrasada dars bergen va ilmiy ijod bilan mashg`ul bo’lgan. (Hozir mazkur madrasaning faqat poydevorlari saqlanib qolgan). Olim 1105-yilda (yoki 1126-yilda) 97 yoshida vafot etib, O’paldagi uning ajdodlari maqbarasiga dafn etilgan. Tog` etagida balandligi qirq metrli tepalikda joylashgan maqbara

mahalliy xalq orasida Mahmud Koshg`ariy mozori nomi bilan mashhur. Olim dafn etilgan joyga o'sha davr an'anasiga mos ravishda peshtoqlik qabr qurilib, usti uy shaklida yopilgan. Shundan beri bu er ziyoratgohga aylanib, mahalliy xalq tomonidan ta'mirlanib turilgan. Qabr joylashgan tepalikning etaklari go'zal, manzarali boqqa aylantirilgan. Maqbaraga chiqishda to'qson ikkita zinani bosib o'tish lozim. Aytishlaricha, ushbu zinalar soni olimning yoshi soniga tenglashtirilgan. Tepalikda olimning kitob ushlab turgan haykali o'rnatilgan.

Mahmud Koshg`ariy dunyoga mashxur asari «Devonu lug`otit turk» («Turkiy so'zlar devoni»)ni abbosiylardan bo'lgan Abulqosim Abdulloh binni Muhammadil Muqtadoga bag`ishlaydi. Ushbu asar turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik lug`atlarning barcha unsurlarini qamrab oluvchi lastlabki universal lug`at bo'lib, o'z muallifini dunyoga ulug` adabiyotchi, tarixchi geograf va b. ko'p fanlarlan yaxshi xabardor bo'lgan yirik fan arbobi. qomusiy olim sifatida tanitdi. Bu asarida olim turkiy qabila va urug`lar (xalqlar) tillaridagi so'zlar ma'nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida esa maqollardan va badiiy adabiyotdan parchalar keltirali.

Mahmud Koshg`ariy asariga o'zi tuzgan dunyo xaritasini ilova qiladi. Xaritada mamlakat, shaxar, qishloq, tog`, cho'l, dengiz, ko'l, daryo qabilarning nomlari yozilgan. Xarita, asosan, Sharqiy yarim sharga to'g`ri keladi. Ayrim kamchiliklariga qaramay, xarita o'z davri uchun mukammal, hozirgi davr uchun geografik ma'lumotlar beruvchi muhim manba hisoblanadi.

Mahmud Koshg`ariyning turkiy til grammatikasiga bag`ishlangan boshqa bir asari ham bo'lgan. Chunonchi, olim "Devonu lug`atit turk"ning kirish bo'limida kitobda zikr etilmagan grammatik qoidalar to'g`risida so'z yuritib: "Birlik, ko'plik, oshirish, chog`ishtirish, kichraytish, kelishiklar masalasi va boshqalar ham zikr qilinmadni. Chunki biz bularni "Kitob javohir an-nahv fi-lug`at at-turk" ("Turkiy tillarning nahviga oid gavharlar kitobi") ismli

asarimizda berdik. Nahvgə oid qoidalar u asardan qaralishi kerak”, – deb yozadi (MK.I.62). Biroq uning bu kitobi saqlangan emas.

«Devonu lug`otit turk»ning qo`lyozmasi 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo`lyozma hozir Istanbulda saqlanadi. Bu nusxa asar yozilganidan salkam 200 yildan keyin, ya`ni Mahmud Koshg`ariyning o`z qo`li bilan yozilgan nusxadan 1266 yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal-Soviy al Damashqiy tomonidan ko`chirilgan.

Asar arablar, arab tilini biladigan sharq xalqlari va evropa ilmiy jamoatchilagini turkiy til bilan tanitish maqsadida yaratilgan. Asar bir qancha tilga tarjima qilingan. Hozirda uning turkcha, o`zbekcha, uyg`urcha, inglizcha, ruschaga o`girilgan nashrlari bor. «Devonu lug`otit turk»da, avvalo, otlar, so`ng fe'llar izohlanadi. So`zlar tartibi ularning tarkibidagi harflarning orta borishiga (2 harfdan 7 harfgacha) qarab amalga oshirilgan.

Asarda qabila va urug` tillariga oid lingvistik ma'lumotlar ancha batafsil berilgan. Bunda har so`zning ma'nolari (polisemiya, omonim, sinonim, antonim va arxaik so`zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so`zlarning etimologiyasiga to'xtalib o'tadi. Tovushlar (fonemalar)ning taxlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, cho'ziq va qisqa unlilar, ularning urug` tillaridagi talaffuzi va orfografiyası, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan. Morfologiya sohasida so`z turkumlarini, davr an'anasiiga ko`ra, uch so`z turkumiga: fe'l, ism, bog`lovchiga bo`lib, ularning yasalish va turlanish yo'llarini ko`rsatib o'tadi. Asarda uch yuzga yaqin maqol va matallar, o`nlab she'riy parchalar keltirilgan.

Tilshunos olim V.I.Belyaev asar haqida shunday yozadi: «Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan. Muallif bergen ma'lumotlarni arxeologik kashfiyotlar isbot etmoqda».

Nemis sharqshunosi Karl Brokkelman asarni 1928-yilda nemis tiliga tarjima qildi. Asar qo`lyozmasining fotonusxasi Istanbulda Kilisli Rifat (3 jildli;

1915-1917), keyinchalik Bosim Atalay tomonidan (3 jildli; 1939-1941) turk tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. Uning turk tilidagi keyingi qayta nashri 1957 yil amalga oshirildi. «Devonu lug`otit turk» asari ikkinchi bo`lib o`zbek tiliga tarjima qilinib, muhim izoh va tafsirlari bilann 1960-1963-yillari Toshkentda «Fan» nashriyotida 3 jildda chop etilgan. Bu tilshunos olim Solih Mutallibovning 35 yillik mehnati natijasi edi. Ushbu nashr faqat tarjima bo`lmay, turkcha tarjimaga munosabat, baho, atamalar, shaxs nomlari, shahar va joy nomlariga izoh va tafsir hamdir.

O`zbekcha nashrining muqaddima qismida Maxmud Koshg`ariyning lingvistik qarashlari, turkiy qabilalar, ularning shakllanishi, bu urug` va qabilalar, tillarning hozirgi turkiy xalqlar va ularning tiliga munosabati, tarjima transkriptiyasi to`g`risida ma'lumotlar berilgan. «Devonu lug`otit turk».o`zbekcha nashrining oxirida turkiy urug`, qabila, shaharlar va boshqalar to`g`risida bat afsil ma'lumotlar bor, asarning har bir jildida havolalar berilib, unda uchragan so`z va iboralar keng ta'riflanadi, izohlanadi. O`zbekcha nashrining muhim tomonlaridan biri, uning har bir jildi asosida tuzilgan ko`rsatkichdir. Unda asarda uchragan so`zlar alifbo tarzida keltirilib, so`zning o`zbek va rus tilida tarjimasi beriladi.

“Devonu lug`atit turk”ning bitta qo’lyozmasi saqlangan. U hijriy 664-(melodiy 1266-) yilda kotib Muhammad ibn Abubakr ibn Abdulfath as-Saviy ad-Damashqiy ko’chirgan. Uning yozishicha, mazkur qo’lyozma Mahmud Koshg`ariyning o’z qo’li bilan bitilgan nusxasidan ko’chirilgan. U hozir Istanbuldagagi Millat kutubxonasining Ali Amiriy fondida 4189 raqami ostida saqlanmoqda. Qo’lyozma 319 varaqli katta bir jilddan iborat bo’lib, varaqlari tarqoq, yirtiq, boshi-oxiri noma’lum, sahifalari qo’yilmagan. «Devonu lug`otit turk» qo’lyozmasi uchga bo’linib, birinchi va ikkinchi jildlari 1915-yilda, uchinchi jildi 1917-yilda Istanbulda Kilisli Rifat muharrirligida nashr etildi. Tilshunos Bosim Atalay asarni turk tiliga birinchi bo’lib mukammal tarjima qildi.

Abdulahad Nuriy «Devonu lug`otit turk»dagi aforizm va maqollarning 251 tasini to'plab, «Otalar so'zi» nomida nashr ettirdi. Shokir Ulkutoshirning «Kashg`arli Mahmud» nomli kichik bir asarida Mahmud Koshg`ariynint hayoti, ijodi va «Devonu lug`otit turk»ning mazmuni bayon etilgan.

G`arbiy Evropada sharqshunos Karl Brokkelman 1920-yilda «Devonu lug`otit turk» to'g`risida birinchi maqolasini e'lon qildi, keyinchalik asardagi so'z, ism va joy nomlarining ro'yxatini tuzib, qaysi tom va sahifasini belgilab, alohida kitob (ko'rsatkich) tarzida nemischa so'z boshisi bilan 1928-yilda nashr etdi. U «Devonu lug`otit turk»ning til va adabiyot uchun ahamiyati, uning tarjimasi to'g`risida ham bir necha maqolalar yozdi.

Atoqli turkolog S.E.Malov Toshkentda ishlagan davrida ham, keyinchalik ham «Devonu lug`otit turk»ga katta ahamiyat berdi. Uning «Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari» nomli monografiyasida asarga oid qimmatli fikrlar ifodalangan va kattagina bibliografiya berilgan.

Sharqshunos P.K.Juze 1926-1928-yillarda «Devonu lug`otit turk»ga bag`ishlab ikkita maqola yozdi. P.K.Juze asli falastinlik arab bo'lib, u 1871-yilda tug`ilgan. Qozon universitetida ta'lim olgan, Qozonda va Bokuda professorlik qilgan, 1942-yilda Bokuda vafot etgan. U maqolalarida «Devonu lug`otit turk» asariga juda yuksak baho berdi, uning katta ahamiyatini uqtirib o'tdi. U yozadi: «Mahmudning «Devonu lug`otit turk» asarida o'sha vaqtda Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan Shimoliy-Sharqiylar qabilalarning deyarli hammasi to'plangan. Dadil aytish mumkinki, yaqindagina (XIX asr oxirlarida) Rossiyada va Sharqda o'r ganilgan turkiy tillar fonetikasi va etimologiyasining asosiy qonunlari XI asrdayoq Mahmud tomonidan aniqlangan va o'r ganilgan edi. Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqurki, hatto, bunday asar XIX asrda yozilganda ham unga shon-sharaf bo'lardi. Mahmud

Koshg`ariyning «Devonu lug`otit turk»i singari asar fan olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli «Turkiy qomus»dir».

O'zbek olimlari orasida «Devonu lug`otit turk» asarini ilmiy asosda o'rghanishni Turkiston jadidchilik harakatining g`oyaviy rahnamosi Abdurauf Fitrat boshlab berdi. Uning «Devonu lug`otit turk» asariga oid tadqiqotlaridan biri «Eng eski turk adabiyoti namunalari» deb nomlanadi. Mazkur tadqiqot-majmua 1927-yilda isloh qilingan arab yozuvida chop etilgan bo'lib, unda Fitrat turkshunoslik ilmining asoschisi Mahmud Koshg`ariyning mashhur «Devonu lug`otit turk» asaridagi she'riy parchalarni yig`ib, ularni adabiy tur va janrlarga ko'ra tasniflagan. «Bir-ikki so'z» deb nomlangan so'z boshisida o'zbek tili va adabiyoti tarixi, turkiy tilshunoslik va o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim, ahamiyatli fikrlar ifodalangan. Ular jumlasiga quyidagilarni aytish mumkin:

- a) Mahmud Koshg`ariy, V.V.Radlov va A.N.Samoylovichlarning turkiy tillar tasnifiga oid ilmiy qarashlari mufassal tahlil etilgan;
- b) yangi o'zbek adabiy tilining asosiy manbalari to'g`ri belgilangan;
- v) «Devonu lug`otit turk» asaridagi she'riy parchalar adabiy tur va janrlarga ko'ra aniq tasniflangan;
- g) «Devonu lug`otit turk» asarining ilmiy-tarixiy ahamiyatiga to'g`ri baho berilgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, «Devonu lug`otit turk» asarining qo'lyozmasi 1914-yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida topiladi, 319 sahifali bu qo'lyozmaning fotonusxasini Kilisli Rifat 1915-1917-yillarda uch tomdan iborat qilib, Istanbulda nashr ettiradi. Fitrat ushbu nashrdan foydalanib, uni tadqiq etishga harakat qilgan. Dastlab u turkshunoslar Mahmud Koshg`ariy, V.V.Radlov va A.N.Samoylovichning turkiy tillar tasniflariga o'z munosabatini bildirib o'tadi.

Ma'lumki, V.V.Radlov tasnifida, asosan, hududiy-geografik nuqtai nazar asos qilib olingan va shunga ko'ra turkiy tillar to'rt guruhga bo'lingan. Ular quyidagilardir: 1) *Sharqiy guruhi*. (Bu guruhga oltoy, chulim, xakas, shor,tuva va enasoy turkclarining tili kiradi); 2) *G`arbiy guruhi*. (Bu guruhga qirg`iz, qozoq, qoraqalpoq, tatar, boshqird tillari kiradi); 3) *O'rta Osiyo guruhi*. (Bu guruhga uyg`ur va o'zbek tillari kiradi); 4) *Janubiy guruhi*.(Bu guruhga turkman, ozarbayjon va turk tillari kiradi).

A.N.Samoyovichning tasnifida esa turkiy tillar oltita guruhga bo'lingan. Uning tasnifida fonetik tamoyil asos qilib olingan. Tasnifda turkiy tillar guruhi quyidagilardan iborat: 1) **Bulg`or** guruhi. Bu **R** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga eski bulg`or va hozirgi chuvash tillari kiradi); 2) Shimoli-Sharqiy yoki uyg`ur guruhi. Bu **D** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga uyg`ur, tuva, salar tillari kiradi); 3) Shimoli-G`arbiy yoki qipchoq guruhi. Bu **Tau** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga oltoy, qirg`iz, qumiq, tatar, boshqird, qozoq tillari kiradi); 4) Janubi-Sharqiy yoki chig`atoy guruhi. Bu **Tag`liq** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga o'zbek va uyg`ur tillari kiradi); 5) O'rta yoki qipchoq-turkman guruhi. Bu **Tag`liq** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga qipchoq-turkman tillari kiradi); 6) Janubi-G`arbiy guruhi. Bu **Ol** guruhi nomi bilan ham yuritiladi. (Bu guruhga ozarbayjon, turk, gagauz tillari kiradi).

Fitrat mazkur tasniflarni tahlil etib bo'lgach, ular bo'yicha o'z xulosalarini quyidagicha ifodalaydi: «Har holda bu tasniflarning ko'pda asosiy narsalar bo'lmag`ani ma'lum. Bulardan boshqa birda tarixiy tasnif Mahmud Koshg`ariyning «Devoni lug`at»ida bordir». Olimning mazkur fikridan quyidagilarni anglash mumkin:

1) rus turkshunoslarining tasnifida juda ko'p kamchiliklar mavjud, ularda turkiy tillar bir tomonlama tasnif etilgan. V.V.Radlovnning ilmiy ishlarida turkiy

tillar hududiy-geografik nuqtai nazardan, A.N.Samoylovichning ilmiy asarlarida esa turkiy tillar bir xil lingvistik belgisiga asoslanib tasnif etilgan. Bunday yo'l tutish xatolik va chalkashliklarni keltirib chiqarishi aniq. Shu uchun ularning tasniflari mukammallikdan yiroq;

2) mazkur tasniflardan bir necha asr ilgari, ya'ni XI asrda yaratilgan tasnif ham mavjud bo'lib, u Mahmud Koshg`ariyga tegishlidir. Ayonki, olim turkiy xalqlarning hududiy-geografik jihatdan yashash manzillari va turkiy tillarning lingvistik xususiyatlarini alohida e'tiborga olib, turkiy tillarni ikkita guruhga bo'ladi:

1) turk yoki xoqoniy turkchasi tillari; 2) o'g`uz tillari.

Ma'lumki, «Devonu lug`otit turk» asarida mazkur guruhdagi tillarning fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari mufassal tahlil etilgan, shularga asoslanib ular tasnif etilgan. Bu tarixiy tasnif ancha sodda, aniq va qisman mukammal ekanligini Fitrat alohida ta'kidlab, undan keng foydalanish, yaratilajak yangi tasniflarga, albatta, asos qilib olinishi lozimligini aytadi. Asarga tarixiy fonetika, morfologiya va leksikologiya uchun qimmatli materiallar beruvchi manba sifatida yuqori baho beradi. Chindan ham unda yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha ancha keng va to'liq ma'lumotlar mavjud.

Fitrat «Devonu lug`otit turk» asarida mingdan ortiq so'zning izohi berilganligini qayd etadi. Ayrim adabiyotlarda asardagi so'zlar miqdori olti mingdan ziyodroq deb ko'rsatilgan. «O'zbekiston Milliiy enstiklopediyasi»da esa sakkiz mingdan ortiq so'zning izohi berilganligi ko'rsatib o'tilgan (O'ME,III,230). Hozircha bu masalada aniq to'xtamga kelingani yo'q. Fitrat tadqiqotida «Devonu lug`otit turk» asarining yozilish sanasi ham ko'rsatib o'tilgan. Shu o'rinda mazkur asarning yozilish sanasi xususidagi ayrim qarashlarga to'xtalib o'tsak. Ba'zi o'quv adabiyotlarida asarning yozilish sanasi 1072-1083-yillar deb qayd etilgan bo'lsa (Muxtorov A., Sanaqulov U. O'zbek

adabiy tili tarixi. –T.: O’qituvchi, 1995. –B. 56), ayrim ilmiy manbalarda 1068-yil (Abdurahmonov G`., Shukurov Sh. O’zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O’qituvchi, 1973. –B. 16), «O’zbekiston Milliy enstiklopediyasi»ning 3-jildida 1071-1072-yillar (230-b.), 5-jildida esa 1072-yil (77-b.) deb ko’rsatilgan. Fitrat «Devonu lug`otit turk» asari hijriy 464-466-yillarda yozib tugatilganligini qayd etadi. Buni milodiy yil bo'yicha hisoblasak, 1072-1074-yillarga to'g`ri keladi. Bu borada Fitratning fikri haqiqatga yaqin.

Fitrat mazkur asarni tadqiq etish jarayonida juda ko'plab ilmiy va badiiy asarlarni o'rganib chiqadi. Shular jumlasiga V.V.Radlov va A.N.Samoylovichlarning ilmiy tadqiqotlarini, «Qutadg`u bilig», «Hibatul-haqoyiq», «Muqaddimatul-adab» kabi badiiy va lug`at asarlarni aytish mumkin. Olim shular asosida «Devonu lug`otit turk» asaridagi she'rlarni izohlagan, vazn, qofiya, mavzu bo'yicha tahlil va tasnif etgan. Fitrat o'zbek xalqining, kengroq ma'noda aytsak, turkiy xalqlarning yozma manbalarini o'rganishda, ularni targ`ib etishda alohida o'ringa ega. Undan qolgan ilmiy meros hozir ham o'z ahamiyati va dolzarbligini aslo yo'kotgan emas.

Koshg`ariyshunoslikka munosib hissa qo'shganlardan biri, shubhasiz, Solih Mutallibovdir. U «Devonu lug`otit turk» haqida bir qancha maqolalar, monografiyalar yozdi, asarni to'la ravishda o'zbek tiliga tarjima qildi va nashr etdi. Solih Mutallibov ko'zga ko'ringan koshg`ariyshunoslardan bo'lib, bu sohaning eng yirik mutaxassislaridan biridir. «Devonu lug`otit turk» asarining tarjimasiga berilgan izohlarning o'zi alohida bir ilmiy ishdirk, bu ko'p vaqt va keng bilimni talab qiladi.

“Devonu lug`atit turk” ikki – muqaddima va lug`at bo'limlaridan tuzilgan. Muqaddimada kitobning yozilish sababi, uning tuzilishi; turklar qo'llaydigan yozuv; otlarning yasalishi; fe'llarning tuslanishi; so'z tarkibi (morfem tuzilishi); kitobda e'tibor qaratilgan grammatik qoidalar; turk

tabaqalarining ta’rifi va ularning erlashuv o’rni; turk lahjalaridagi farqlar xususida so’z yuritiladi. Lug`at sakkiz bo’limdan iborat:

1. Hamzali so’zlar, ya’ni “alif” bilan boshlanadigan so’zlar bo’limi.
2. Solim, ya’ni “alif”, “vav”, “ya” harflari bo’lmanan so’zlar bo’limi.
3. Muzoaf, ya’ni undoshlari ikkilanadigan so’zlar bo’limi.
4. Misol, ya’ni tarkibida “alif”, “vav”, “ya” bo’lgan so’zlar bo’limi.
5. Zavatu-s-salasa (uch harfli so’zlar), ya’ni “alif”, “vav”, “ya” harflari qisqa unli sifatida o’qiladigan so’zlar bo’limi.
6. Zavatu-l-arba’ a (to’rt harfli so’zlar), ya’ni “alif”, “vav”, “ya” qisqa talaffuz qilinadigan so’zlar bo’limi.
7. G`unnalilar, ya’ni tarkibida burun (dumog`) tovushlari kelgan so’zlar bo’limi.
8. Al-jam’ baynas-sakinayi, ya’ni harakatsiz ikki undoshli so’zlar bo’limi.

Har bir bob ism va fe’llardan iborat ikki qismga ajratilgan. Otlar oldin, fe’llar esa keyin o’z sirasiga qarab boblarga ajratilib, oldinma-ketin beriladi. So’zlarning berilish ketma-ketligi ham arab lug`atchiligi ishlab chiqqan prinstiplarga tayanadi: oldin ikki harflilar, so’ng uch, to’rt, besh, so’ng olti harfli so’zlar keladi.

Lug`atga o’sha zamondagi turkiy tilning deyarli barcha sohalariga tegishli so’f turkiy so’zlar jamlangan. Kitobda iste’moldan chiqqan so’zlar berilmagan, faqat iste’moldagi so’zlargina berilgan. Lug`atda so’zlarning berilishi o’ziga xos: avval turkiy so’z, so’ng uning arabcha tarjimasi keltiriladi. Izohlanganda esa uning fonetik variantlari, sheva so’zi bo’lsa, qanday shevada uchrashi qayd etiladi.

Agar lug`atda keltirilgan turkiy so'zga arab tilida teng keladigani bo'lmasa, ya'ni u turklarning tiriklik tarzi, dunyoqarashi, madaniyati, etnografiyasigagina tegishli tushunchani anglatsa, unday holda ushbu so'z kengroq shaklda bayon etiladi. Yanada muhimi, turkcha so'zning ma'nosini ochish uchun o'sha so'z qatnashgan turkiy jumlalar, maqollar, xalq qo'shiqlari, dostonlardan olingan to'rtliklar, ushbu tushuncha bilan bog`liq etnografik marosimlar, qarashlar bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, "Devonu lug`atit turk" tilshunoslik asarigina emas, qadimgi turk folklori, etnografiya, tarix, madaniyatshunoslik va shuning singari o'nlab qadimiy fanlar uchun ham boy material beradi.

Masalan, *im* (belgi, yashirin so'z) so'ziga izoh berar ekan, shunday yozadi: "**im** – shoh askarlariga qo'yilgan (tayinlangan) yashirin belgi, parol; bu belgi qush yoki qurol nomi yoki biror so'zdan iborat bo'lishi mumkin; to'qnashganda uni aytib o'zlarini tanitadilar; maqolda shunday kelgan: *im bilsä er ölmäs* – Im bilsa, er o'lmas (Kishi yashirin belgini bilsa, nohaq o'lmaydi)" (MK,I,74).

"**qush** – qush. Jamlikni bildiradigan turdosh ot. Keyin bularni bir-biridan farqlashda ayrim so'zlar qo'shiladi: *öriüng qush* – oq lochin; *qara qush* – burgut; *teväy qush* – tuyaqush; *yun qush* – tovus; *el qush* – ilqush, qirg`iy.

So'ngra Mushtariy yulduziga ham *qaraqush* deyiladi. *Qaraqush tuğdī* – Mushtariy yulduzi chiqdi, demakdir; u tong chog`ida chiqadi. O'g'uzlar tuya oyoqlarining uchiga ham *qaraqush* deydilar; *qız qush* – tukining rangi *abü bäräkish* rangiga o'xshash bo'lgan bir qush, ya'ni qizil to'sh qush" (MK,I,319).

"**temür** – temir: *kök temür kerii turmas* – ko'k temir bekor turmaydi, etgan joyini yaralaydi. Buning boshqa bir ma'nosи ham bor. Qirg`iz, yabaqu, qipchoq va boshqalar biror kishiga qasam ichirganda yoki undan biror narsaga va'da olganda, qilichni uning oldiga ko'ndalang qo'yib: *kök kirsun*, *qızıl chiqsun* deydilar, ya'ni "va'da buzilsa, bu ko'k kirsin, qizil chiqsin, ya'ni qonga belanib

chiqsin. Bu ahd buzilsa, temir seni o’ldirsin, o’ch olsin” demakdir. Chunki ular temirni hurmat qiladilar” (MK,I,342).

Mahmud Koshg`ariy o’z davridagi dialektlarning leksik xususiyatlarini ham to’liq ko’rsatib bergen. Muallif so’zlarni izohlar ekan, o’rni bilan ularning qaysi bir dialektga mansub ekanligi, dialektlardagi o’ziga xos ma’no xususiyatlari va boshqa muhim tomonlari haqida ham to’xtalib o’tadi. Bu esa ana shu so’zning dialektal xarakterini ochib beradi. Shu o’rinda Mahmud Koshg`ariy tomonidan ma’lum bir dialektga mansub deb izohlangan so’zlardan keltiramiz.¹⁷

O’g`uzlar qo’llaydigan so’zlar: *ashaq* “tuban, quyi” (I.97), *aliq* “qush tumshug`i” (I.98), *ekin* “ekin; ekin ekiladigan er” (I.107), *üyäz* “kichik chivin” (I.112), *arsu* “har bir jo’n narsa” (I.148), *jar* “vaqt” (I.312), *cher* “ro’para” (I.312), *endäk* “sath” (I.130), *örkän* “qayish” (I.132), *eylä* “shunday” (I.137), *eträk* “rangi sariq odam” (I.127), *pamuq* “momiq, paxta” (I.360), *töläk* “tinch va og`ir kishi” (I.368), *sündu* “qaychi” (I.395), *qarinchaq* “chumoli” (I.460), *sechä* “chumchuq” (III.238) va b.

Chigillar qo’llaydigan so’zlar: *ud* “sigir” (I.80), *ajun* “dunyo” (I.106), *üzi* “ikki tog` orasidagi keng yo’l” (I.116), *aybang* “kal” (I.139), *ötki* “evaz, badal” (I.149), *chekäk* “chechak kasalligi” (I.369), *saman* “somon” (I.392), *quchgundi* “piyoz” (I.454).

Qarluqcha so’zlar: *ulichüm* “o’g`ilcham, qarog`im” (I.86), *sugut* “suzma” (I.337), *it kerdi* “it vovulladi” (II.15).

Qipchoqcha so’zlar: *ökil* “ko’p” (I.103), *aba* “ayig`” (I.113), *sulaq* “qora jigar” (I.390), *ajan* “ikki elkanli kema” (I.144).

Arg`ucha so’zlar: (arg`ular ikki tilda so’zlashuvchilar deb ko’rsatiladi) *oǵla* “yosh yigit” (I.149), *qız kishi* “baxil odam” (I.315), *bük* “burchak” (I.321),

¹⁷ Мазкур маълумотлар К.Содиковнинг “Тарихий лексикография” (2011) ўқув кўлланмасидан олинди.

chigit “paxta urug`i, chigit” (I.337), *tudrīch* “go’ng” (I.422), *bashtar* “o’roq” (I.424), *bitrik* “pista” (I.441).

Yag`mocha so’zlar: *charun* “chipor daraxti” (I.392), *chignä* “surgi” (I.408).

Bulg`orcha so’zlar: *avus* “mum” (I.91).

Barsag`ancha so’zlar: *ariğ* “chodir pardasi” (I.94), *tünäk* “zindon” (I.387), *sökti* “kepak” (I.394), *achi* “kekxa xotin” (I.114).

Qashqarcha so’zlar: *sibüt* “kashnich” (I.337), *butiq* “kichik mesh” (I.358).

Turkmacha so’zlar: *qarit* “o’g`irlash, talash” (I.338), *taquq* “tovuq” (II.330).

Kanjakcha so’zlar: *kenbä* “bir o’simlik” (I.393), *körkä* “yog`och kosa” (I.405).

Devonda bir guruh so’zlar bir qancha dialektlar uchun umumiyl bo’lgan deb ko’rsatiladi. Jumladan, quyidagi so’zlar o’g`uz va qipchoqlarda qo’llanilishi ta’kidlangan: *aliğ* “har narsaning qaytarilishi” (I.95), *ariq* “oriq, zaif” (I.97). Yoki yana misollarni kuzating: *ebmäk* “non” (yag`mo, tuxsi va ba’zi o’g`uz va qipchoqlar so’zi) (I.126), *urǵa* “katta daraxt” (o’g`uz va arg`ucha) (I.148), *benäk* “urug`” (arg`u va ba’zi dialektlarda) (I.367).

Ayrim so’zlar bir dialektda ma’lum bir shaklda bo’lsa, ikkinchi dialektda uning o’rnida boshqa so’z qo’llanilgan. Bu narsa Mahmud Koshg`ariy tomonidan ham alohida qayd etilgan: Masalan, boshqa turklar idish, kosa, piyolani *ayaq* desalar, o’g`uzlar uning o’rnida *janaq* so’zini qo’llaganlar (I.112), turklar *almila* (ya’ni olma) desalar, o’g`uzlar *alma* so’zini qo’llaganlar (I.150).

Ko'pchilik turklar *chiqtü* desalar, yag`mo, tuxsi, yaboqu, qipchoq va ba'zi turkman urug`lari xuddi shu ma'noda *tashiqtü* so'zini qo'llaganlar: *er evdin tashiqtü* "odam uydan tashqari chiqdi" (II.131).

Bir guruh so'zlar dialektlarda stilistik jihatdan ham chegaralangan edi. Jumladan, *qildi* salbiy ma'noda ham qo'llanilgani sababli, o'g`uzlar undan qochib, uning o'rnida *etti* so'zini qo'llaydilar: *er yiükünch etti* "odam namoz o'qidi". Turklar esa *qildi* so'zini qo'llaganlar (II.33). Yoki turklardagi *tekindi* – "erishdi, muyassar bo'lди" ma'nosidagi so'zini, devon muallifining yozishicha, o'g`uzlar "yoqtirmaydilar" (II.166).

O'zlashgan so'zlarning miqdori bo'yicha ham dialektlar orasida farq bo'lган. Buni Mahmud Koshg`ariyning quyidagi ma'lumotida ham ko'ramiz: "O'g`uzlar forslar bilan aralashgach, ba'zi so'zlarni unutdilar va ularning o'rniga forscha so'zlar qo'llay boshladilar: *qumğan* o'rnida *āftāba* (I.406)ⁱ.

«Devonu lug`otit turk» asarida turli sohalarga doir so'zlar bilan bir qatorda zoonimlar ham ifodlangan. Ma'lumki, *zoonim* yunoncha so'z bo'lib, *hayvon nomlari bilan bog`liq so'zlar* ma'nosini ifodalaydi. «Devon» dagi zoonimlarni hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtai nazardan ikkita guruhga ajratish mumkin: hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan qadimgi turkiy zoonimlar va hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydigan qadimgi turkiy zoonimlar.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan qadimgi turkiy zoonimlar jumlasiga *echko'* (*echki*), *tuya*, *ayig`*, *it*, *ilon*, *qo'y* kabilarni aytib o'tish mumkin. Ushbu so'zlarning til va lahjalarda turlichalari ifodalanishini olim aniq ko'rsatib o'tadi. Yuqorida keltirilgan *tuya*, *qo'y* kabi so'zlar har bir tilda, ya'ni turkiy va o'g`uz tillarida turlichalari talaffuz etilishini Mahmud Koshg`ariy shunday izohlaydi: «So'zdagi «t»ni o'g`uzlar va ularga yaqinlar «d»ga aylantiradilar, chunoni, tuyani turklar *teve* desalar, o'g`uzlar *devey* deydilar. So'z o'rtasida yoki oxirida kelgan «y»ni arg`ular «n»ga almashtiradilar.

Masalan, turklar — *qoy* (qo'y) desalar, ular — *qon* (qo'n) deydilar» (MK,I,66-68).

«Devon»da hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydigan qadimgi turkiy zoonimlar ham mavjud. Bunday so'zlar jumlasiga *eno'k* (yosh arslon, arslon bolası), *aba* (ayiq), *erkach* (taka, erkak echki), *obko'k* (sassiqpopishak), *alavan* (timsoh), *ud* (sigir), *as* (karkas qushi; burgut) kabilarni aytish mumkin. Mahmud Koshg`ariy bulardan tashqari *arqar*, *arju* kabi zoonimlarni ham izohlaydi: «*arqar* — urg`ochi tog` echkisi; uning shoxidan pichoqqa sop qilinadi; *arju* – shoqol, chiya bo'ri deyilgan yirtqich bir hayvon».

Mahmud Koshg`ariy ayrim zoonimlarning qaysi til (sheva va lahja)ga oidligini ham qayd etgan. Masalan, *ud*, *obko'k* kabilar chigilcha, *aba* qipchoqcha ekanligini misollar asosida aniq ko'rsatib o'tgan. Olim ayrim zoonimlarni maqollar asosida izohlagan. Chunonchi, *ordak* (o'rdak), *og`laq* (uloq, echki bolası) so'zlarini maqol bilan shunday izohlaydi: «*Ordak* (o'rdak) maqolda shunday kelgan: *qaz qopsa*, *ordak kolig igano'r* — «g`oz qo'zg`alsा, o'rdak ko'lni egallaydi». Bu maqol xalq orasidan biror katta kishi ketgandan keyin, uning o'rniga undan tuban bir kishining ko'tarilishini eslatish uchun qo'llaniladi (MK,I,129); «*Og`laq* (uloq, echki bolası) maqolda shunday kelgan: *og`laq yiliksiz*, *og`lan biliksiz* — «echki bolasida ilik yo'q, yosh bolada aql yo'q» (MK,I,141).

Mahmud Koshg`ariy zoonimlarning omonimlik xususiyatini *ingak*, *at* kabi so'zlari vositasida izohlaydi: 1) «turkiylar sigirni *ingak* desa, o'g`uzlar toshbaqaning urg`ochisini *ingak* deydilar (MK,I,135); *at I* — ot, ism; *at II* — ot (hayvon); *at III* — laqab; unvon. *Beg angar at berdi* — bek unga unvon berdi. Qabilaning ulug`i yoki boshlig`ini ham *atlig`* deyish shundandir» (MK,I,107). «Devon»da yuqoridagi zoonimlardan tashqari yana *bug`ra* (ikki o'rkachli tuya), *azg`ir* (ayg`ir), *taqag`u* (tovuq) kabilar ifodalangan.

Mahmud Qoshg`ariy chetdan qabul qilingan so'zlarga ikki xil munosabatda bo'ladi. Predmet va tushuncha bilan bog`liq ravishda kirib kelgan so'zlarga ijobiy munosabatda bo'ladi. Tilda mavjud bo'lgan so'zlar o'rnida boshqa tildan olingan so'zni qo'llashga salbiy qaragan va bu holatni zararli, manfiy holat deb bilgan. Bunga ko'ra *bilge*, *bitik*, *urag`ut* kabi turkcha so'zlar o'rnida arabcha *olim*, *kitob*, *ayol* so'zlarini qo'llamaslik kerak.

Koshg`ariy o'sha davr fonetikasiga doir qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Shu davr alfaviti to'g`risida: «Turkiy tillarda qo'llaniladigan asosiy harflar soni 18 tadir. Xolbuki, tildagi tovushlar 18 ta emas, ko'pdir. Bu 18 harf etishmaydi. Bulardan boshqa tilda mavjud bo'lgan tovushlarni berish uchun yana 7 ta tovushni ana shu mavjud harflar ustiga maxsus belgi qo'yib yoziladi» (MK,I,47-48). Shuningdek, Koshg`ariy unli va undosh tovushlar, ularning xarakteristikasi, tovush almashinishi qonuniyatlari haqida o'rinali fikrlarni bayon qiladi.

Lug`atda mavjud so'z turkumlariga doir leksik birliklarning atroflicha izohiga e'tibor berilgan. Leksemalarga birlamchi (asl) ma'nosidan farqli qo'shimcha (sema) yuklatish, shu yo'l bilan yangi leksema hosil qilish ham Mahmud Koshg`ariy nazaridan chetda qolmagan. Uning mulohazasiga ko'ra, yangi so'zlar yasash faqat affikslar yoki so'zlarni birbiriga biriktirish kompozistiya bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar orqaligina amalga oshirilmaydi. Balki, quyidagi uslublardan foydalangan tarzda ham yangi so'z yasash o'zini oqlaydi:

- a) so'zlarni qarama-qarshi, zid qo'llash bilan. Masalan, *sýchýk* so'zi oldin shirinlikka nisbatangina ishlatilgan, so'ng achchiq ta'm-mazalik ichkilikka nisbatan ham qo'llanishi shunga misoldir;
- b) butun o'rnida bo'lak, bo'lak o'rnida butun qo'llash natijasida yangi so'z yuzaga chiqadi. Bu erda hozirgi zamonaviy tilshunoslikdagi integral va differential semalar nazarda tutilgan, ya'ni *saban* istilohi avval qo'sh va

omochning umumiy ma’nosini bildirgan bo’lsa, keyin faqat omochga nisbatan qo’llanganligi ta’kidlangan (I,382);

v) so’zlar ma’no doirasining kengayishi yangi ma’no anglatadi. Xususan, “qiz bola” ma’nosidagi *qыз* leksemasining majoziy “qimmatbaho” ma’nosi (I, 315) shular jumlasindandir.

Mahmud Koshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asari o’zbek tili tarixida yaratilgan asarlar orasida o’zining ilmiy qiymatiga ko’ra alohida ajralib turadi. Turkologlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar va arxeologlar har doim aniq va to’g`ri manba sifatida uning asariga asoslanadilar. Xalqimizning boy tarixini har tomonlama o’rganish, uning taraqqiyot bosqichlariga xos jihatlarni umumlashtirish muhim masalalardan hisoblanadi. «Devonu lug`otit turk» asari o’zbek xalqi tarixida muhim ahamiyatga ega noyob manbadir.

Xullas, Mahmud Koshg`ariy o’z davrining buyuk tilshunosi tarzida turkiy tillarda qo’llangan so’zlarni jamladi va ularni o’ziga xos bilimdonlik va chidam bilan tadqiq qildi. “Devonu lug`otit turk” qoraxoniylar davri ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy-madaniy, maishiy, etnografik turmush tarzini anglashda, shu jihatlarga doir tushunchalarni ifodolovchi leksemalar tizimini idrok etishda beباho manba hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

- Mahmud Koshg`ariy va uning “Devonu lug`atit turk” asari to’g`risida ma’lumot bering.
- Hozirgi turkshunoslikda asarning qanday nashrlari amalga oshirilgan?
- Mahmud Koshg`ariyning turkiy dialektlar haqidagi qarashlari to’g`risida so’zlab bering.

- Asarning tuzilishi, unda so'zlarning berilish prinstiplarini izohlang.
- Lug`atda so'zlar ma'nosini izohlash yo'llari to'g`risida so'zlab bering.
- “Devonu lug`otit turk” asaridagi etnonimlarni aytib bering?
- “Devoni lug`otit turk” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?

Adabiyotlar

- Кошғарий М. Девону луготит турк. Т. I-II-III. –Тошкент.: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. –529 б.; Т. II. 1961. – 488 б.; Т. III. 1963. – 468 б.
- Алиев А., Содиков Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
- Маҳмудов Қ. XI-XVI асрнинг туркий ёзувидағи ёдгорликлар.- Тошкент: Фан, 1994.
- Муталлибов С. XI асрнинг улуг тилшунос олими Маҳмуд Кошғарий / Маҳмуд Кошғарий. Девону луготит турк. I том.- Тошкент: Фан, 1960.
- Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002.
- Турсунов У., Ўринбоев Б., Алиев А. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
- Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. - Самарқанд, 1927.
- Фозилов Э. Шарқнинг машҳур филологлари. – Тошкент: Фан, 1971.
- Худойбердиев Ж. Маҳмуд Кошғарий ҳаёти ва “Девону луготит турк” асарининг ўрганиши. - Тошкент, 2010.
- Ҳасанов Ҳ. Маҳмуд Кошғарий (ҳаёти ва географик мероси). – Тошкент: Фан, 1963.

- Рустамова С. Махмуд Кошфарий лугатининг лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 1999.

UMUMXALQ TILI, ADABIY TIL VA MAHALLIY

DIALEKTLAR

E‘tibor qaratiladigan masalalar:

- Dialekt va adabiy til;
- Dialektlar, ularning paydo bo`lishi, dialektlarni qabila tarixiga bog`lab o`rganish;
- Adabiy tilning shevalarga munosabati va ularning ta`siri.

Tayanch tushunchalar: dialekt, adabiy til, umumxalq tili, og`zaki va yozma til.

Ma'lumki, har bir adabiy til milliy (xalq yoki elat) tilning yuqori bosqichi bo'lib, u me'yorlashgan yoki me'yorlashtirilgan til hisoblanadi. Unga yana quyidagi ta'rifni berish mumkin: «Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik va grammatik jihatdan ma'lum qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoepik me'yorlarga amal qiladigan, so'z ustalari tomonidan sayqal berilgan tildir». O'zbek adabiy tili ham shu qoidaga amal qiladi.

O'zbek adabiy tili ikki shaklda bo'ladi: *og`zaki va yozma*. *Og`zaki adabiy* til orfoepik me'yorlarga, buysundiriladi. Og`zaki adabiy til davlat ahamiyatiga ega bo'lgan barcha sathdagi rasmiy majlislar, o'qish – o'qitish ishlari, ommaviy majlislarda qo'llanadi. *Yozma adabiy* til esa, orfografik qoidalar asosida shakllantiriladi va orfografiya qoidalari joriy etilgan o'zbek alifbosiga

asoslanadi. Unda bir necha tamoyillardan foydalaniladi: fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy - an'anaviy, ramziy va boshqalar.

Har bir adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'ladi. To'g`ri, o'zbek adabiy tilining shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma'lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya'ni o'zbek adabiy tili muayyan dialekt va shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o'sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo'lib, u doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'ladi. Shu tufayli ham adabiy til shu sheva yoki shevalar guruhi rivojlanishi bilan bog`liq ravishda rivojlanib boradi, aksincha, adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'lmasa, u bora-bora muomaladan chiqib ketadi. Muomaladan chiqqani til fanida «o'lik til» degan termin bilan yuritiladi. Tillar tarixida «o'lik tillar» mavjudligi haqida ma'lumotlar ko'p.

O'zbek tili – ko'p dialektli til. Bu uning murakkab tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi, bugungi o'zbek millati o'tmishda xilma-xil etnik tarkibga ega bo'lganligi bilan belgilanadi. O'zbek milliy tilini tashkil etuvchi turli-tuman shevalarni uch lahjaga birlashtirish mumkin. Bular: 1) qarluq-chigil-uyg`ur lahjasi; 2) qipchoq lahjasi; 3) o'g`uz lahjasi. Lahjalar o'zaro farqli xususiyatga ega. Bu farqlar lahjalarning har biri dastlab har xil qabila yoki qabila birlashmalarining tili bo'lganligi bilan bog`liq.

O'zbek milliy tilining lahjalari orasida, odatda, qarluq-chigil-uyg`ur lahjasi hozirgi o'zbek milliy adabiy tilining me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan deb, odatda, alohida ajratiladi. Buning boisi shundaki, o'zbek xalqining shakllanishida qarluq etnik tarkibi Qoraxoniylar davridan boshlab alohida mavqega ega edi. O'zbek tilining birorta shevasini ham adabiy tilga hamma jihatdan asos bo'lgan deb aytib bo'lmaydi. O'zbek tilining barcha lahjalari o'zbek tilining taraqqiyotiga ma'lum bir darajada hissa qo'shgan. Birining adabiy tilga ta'siri bir sohada kuchliroq bo'lsa, boshqa sohada o'zga bir

shevalar guruhining ta'siri ko'proq seziladi. Masalan, Andijon, Farg`ona shevalarida o'zbek tiliga xos eng ko'p tarqalgan grammatik shakllardan birini – hozirgi zamon fe'lining [-yap] affiksi vositasida yasaluvchi shaklini bergen deyiladi. Lekin bu shakl qipchoq lahjalarida ham aynan shunday qo'llanadi. Shunisi xarakterliki, bir qarashda adabiy tildan birmuncha uzoqroq deb tasavvur qilinadigan qipchoq lahjasи morfologiyasi singarmonizmdan, ya'ni fonetik o'ziga xoslikdan xoli olinsa, adabiy til morfologiyasi bilan qariyb bir xil.

Qipchoq shevalarining adabiy til lug`atini, xususan, uning chorvachilik atamalari tizimini rivojlantirishda, adabiy tilning uslubiy imkoniyatlarini boyitishda katta hissasi bor. Masalan, [qirqim], [o'tov], [to'l], [sarimoy], [chakki], [chalop], [uloq], [sovliq] kabi umumiy va chorvachilik atamalari, [quyruq], [bovur], [patir], [tovoq], [kulchatoy], [lochira] singari pazandachilik atamalari adabiy tilga qipchoq shevalaridan kirib kelgan. Adabiy tilning rivojlanishiga o'zbek tilining o'g`uz lahjasи ham ma'lum darajada hissa qo'shgan. Buning uchun adabiy tildagi [yoshulli], [o'g`lon], [buyon], [qaydin], [qorago'z] kabi qator so'zlarni misol sifatida keltirish kifoya. Demak, o'zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida tayanch manba bo'lган tarixiy an'ana bilan bir qatorda barcha lahja va shevalarning o'ziga xos o'rni bor.

O`quvchilar nutqidagi shevaga xos kamchiliklarni tugatishda ehtiyyotkorlik lozim. Avvalo, o`quvchilarga xalq shevalariga xos so`zlar tilimizning boyligi, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizning uzviy qismi ekanini uqtirish kerak. Ammo ularni o`rinli-o`rinsiz qo`llayverish, ayniqsa, yozma nutqda shevalarga xos so`zlarni ishlatib yuborishdan saqlanish lozimligini tushuntirish zarur.

Nutqda uchraydigan *shu yerda* so`zi o`rniga *shetta*, aka so`zi o`rniga *oka* deb aytish adabiy til me'yorlaridan chekinish hisoblanadi. So`z va jumlalarni

adabiy tilda aytish va yozishga o`rgatish uchun ona tili o`qituvchisi quyidagilarni amalga oshirish lozim:

–adabiy talaffuzni o`quvchilarga har bir darsda grammatik, imloviy va ishoraviy qoidalarga bog`lab izchil o`rgata borish;

–o`qituvchining o`zi adabiy tilda aniq va ravon so`zlashi;

–ona tili va adabiyot fanidan boshqa fanlarda ham o`quvchilarning adabiy tilda gapirishiga e`tibor qaratish;

–o`quvchi nutqidagi shevaga xos bo`lgan so`zlarni aniqlab, bularning adabiy til me`yorlariga to`g`ri kelmasligini, hamma uchun tushunarli emasligini aniq misollar bilan tushuntirib berish. Masalan, adabiy tildagi men, sen, qaerda, cho`mildik o`rniga mahalliy sheva ta`sirida man, san, kaytta, hopittik tarzida ishlatilishning noo`rin ekanligini o`quvchilar anglab olsinlar;

–o`quvchilar nutqidagi shevaga xos kamchiliklarni tugatish uchun ularni ko`proq badiiy asarlar o`qishga jalg etish. Chunki o`quvchi qancha ko`p badiiy asar o`qisa , shuncha adabiy til me`yorlarini yaxshi o`zlashtiradi.

Savol va topshiriqlar:

1.Dialekt va adabiy til o`rtasidagi farqlar nimalardan iborat?

2.Dialektlar, ularning paydo bo`lishi, dialektlarni qabila tarixiga bog`lab o`rganish xususida so`zlab bering.

3.Adabiy tilning shevalarga munosabati va ularning ta`siri haqida nimalarni bilasiz.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

- Решетов Б. Б., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.:

Ўқитувчи, 1978.

- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.
- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи, 1996.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқики. -Т.: Фан, 2005.
- www.turk_dili.google.com.tr
- www.dersimiz.com

DIALEKTLARNI TADQIQ QILISH USULLARI

E ‘t i b o r q a r a t i l a d i g a n m a s a l a l a r:

- Ayrim sheva, dialekt va shevalar guruhni ekspeditsiya tashkil etish yo`li bilan o`rganish;
- Dialektlarni turli shaklda o`rganish maqsadida fonetik transkriptsiya bilan yozib olish, tarixiy, tasviriy, qiyosiy tekshirishlar;
- Savol-javob usuli, dialektologik dasturlar asosida sheva vakillarini kuzatish;
- Kuzatish ob`ektlarini tanlash;
- Dialektologik materiallarni hujjatlashtirish.

Tayanch tushunchalar: sheva, dialekt, shevalar guruhi, ekspeditsiya, kuzatish, ob`ekt, hujjatlashtirish.

O`zbek xalq shevalarini o`rganishda qo`llaniladigan usullarning eng muhim quyidagilardir:

1.Yakka holda o`rganish.

2.Tajriba o`tkazish usuli.

3.Savol-javob usuli.

Lahjalar va shevalarni **yakka holda o`rganishni** istagan har bir shaxs o`zini qiziqtirgan shevani tekshirish asosini tanlab olishi mumkin. Shevashunos tekshiriladigan joyga borib, mahalliy sharoit va aholi bilan tanishadi hamda sheva ustida kuzatish ishlari olib boradi. Shevalarni tekshiruvchilar o`zlarini qiziqtirgan sohalarga alohida e'tibor beradilar va uning o`ziga xos xususiyatlarini yozib olishga kirishadilar. Ishning muddati tadqiqotchining oldiga qo`ygan maqsad va rejasi bilan belgilanadi. Masalan, Mahmud Koshg`ariy o`z ishi uchun 15 yilcha vaqt sarflagani ma'lum.

Mahalliy sheva va lahjalarni o`rganishning ikkinchi usuli – bu guruh-guruh bo`lib **maxsus ilmiy safar qilish** yo`li bilan o`rganish hisoblanadi. Ilmiy safarga chiqishdan oldin uning mas`ul ilmiy xodimlari maxsus tayyorgarlik ishlari olib borishadi. Rahbar joy tanlashdan boshlab, uning yakunigacha bo`lgan davrda tadqiqotchilarning ishlariga doimiy rahbarlik qiladi. Ularga ayrim joylar, ma'lum chegaralar ajratib berila-di. Masalan, biror qishloq yoki shaharga chiqqan vaqtda tadqiqot-chilar 3-4 kishidan iborat kichik guruuhlar tashkil eta-dilar. Ularning biri boshliq qilib belgilanadi. Bu guruhlardagi kishilarning biri suhbatni boshqarib boradi, boshqalari esa ma'lumot beruvchi jarayonni talaffuzga ko`ra yozib oladilar.

Shevalarni guruh-guruh bo`lib tekshirish yo`li bilan o`rganish boshqa usullarga nisbatan qulay va afzal bo`lib, uni yetakchi usul deb atash mumkin. Mahalliy lahja va shevalarni tekshirishning uchinchi usuli **savol-javob yoki anketa usuli** deb nomlanadi. Mazkur usulga muvofiq ayrim mutaxassislar tomonidan sheva xususiyatlariga moslab savol-javob shakllari tuziladi va ular turli kishilar tomonidan to`lg`aziladi. Bunday savol-javoblar turli shahar va qishloqlardagi o`qituvchilarga, ayniqsa, til va adabiyot o`qituvchilariga yuboriladi va ulardan ana shu savollarga o`zlarining javoblarini yozib yuborishlari iltimos qili-nadi. Javob ilmiy yozuv (transkripsiya) yoki adabiy imlo bilan amalga oshirilgan bo`lishi lozim. Shevashunoslikdan yaxshi xabardor bo`lmagan kishilar ham anketa usuli bilan ish ko`rishlari va shevalarning xususiyatlarini o`rganishga hissa qo`shishlari mumkin. Bu usul sheva haqida umumiy tasavvur hosil qilish maqsadida qo`llaniladi va tadqiqotchi uchun yordamchi material bo`lib xizmat qiladi.

Sheva materiallari bir kishi tomonidan yozib olingan bo`lsa, uning o`zi tomonidan ishlanadi va ilmiy yozuv (transkripsiya) bilan ta'minlanadi. Agar bunday materiallar jamoa tomonidan yozib olingan bo`lsa , uning ishlanish jarayoni jamoa tomonidan bajariladi.

Shevalarni yakka holda o`rganish usulida har bir tadqiqotchi o`zini qiziqtirgan shevani tanlab olishi mumkin. Shevashunos tekshiriladigan joyga borib, mahalliy sharoit va aholi bilan tanishadi va sheva ustida kuzatish ishlari olib boradi hamda so`ngra uning o`ziga xos xususiyatlarini yozib olishga kirishadi. Ishning muddati tadqiqotchining oldiga qo`yan maqsad va rejysi bilan belgilanadi. Masalan, Mahmud Qoshariy o`z ishi uchun 15 yilgacha vaqt sarflagani ma`lum.

Shevalarni o`rganishning ikkinchi usuli – guruh-guruh bo`lib, maxsus ilmiy safar qilish yo`li bilan o`rganish usuli oliy o`quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot

institutlari tomonidan uyushtiriladi. Ilmiy safarga chiqishdan oldin uning mas`ul xodimlari maxsus tayyorgarlik ishlari olib borishadi. Ayniqsa, ilmiy yozuvni yaxshi o'zlashtirmagan ishtirokchilarga alohida e`tibor beriladi. Shevalarni guruh-guruh bo'lib tekshirish yo'li bilan o'rghanish boshqa usullarga nisbatan qulay va afzal bo'lib, uni yetakchi usul deb atash mumkin.

Aytilganidek, shevalarni tekshirishning uchinchi usuli anketa bilan amalga oshiriladi. Mazkur usulga muvofiq ayrim mutaxassislar tomonidan sheva xususiyatlariga moslab savol-javob shakllari tuziladi va ular turli kishilar tomonidan to'ldiriladi. Bunday savol-javoblar turli shahar va qishloqlardagi o'qituvchilarga, ayniqsa, til va adabiyot o'qituvchilariga yuboriladi va ulardan o'zlarining javoblarini yozib yuborish iltimos qilinadi. Javob ilmiy yozuv bilan amalga oshirilgan bo'lishi lozim. Bu usul sheva haqida umumiylasavvur hosil qilish maqsadida qo'llaniladi va tadqiqotchi uchun yordamchi material bo'lib xizmat qiladi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbek dialektologiyasi fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ?
2. Sheva, dialekt, lahja atamalari haqida ma'lumot bering.
3. Dialektologiya fanning o'rghanish obyektini ayting ?
4. Shevalar qaysi usullar asosida o'rghaniladi ?
5. Adabiy til va sheva nima, ularning munosabatini aytib bering.

Adabiyotlar

- Решетов Б. Б., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.:

Ўқитувчи, 1978.

- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.
- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи, 1996.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқики. -Т.: Фан, 2005.
- www.turk_dili.google.com.tr
- www.dersimiz.com

TRANSKRIPSIYA VA UNING TURLARI

E ‘tibor qaratiladigan masalalar:

- Transkripsiya haqida umumiylar.
- Transkripsiyaning turlari.
- Transkripsiya va imloning o’zaro farqlari.
- Yangi yozuvimiz uchun transkripsion belgilar tizimi.

Tayanch tushunchalar: transkripsiya, transkripsiya turlari, imlo, yozuv.

Ma‘lum til yoki shevadagi tovushlar talaffuzini, ayrim shaxslar nutqini maxsus belgilar yordamida aynan yozib olish *transkripsiya* deyiladi. U lotincha so’z bo’lib, *qayta yozish* degan ma’noni ifodalaydi. Umuman, transkripsiya ilmiy yozuv bo’lib, bir tildagi hamma nozik tomonlarni hisobga olgan holda, ilmiy maqsadlar uchun talaffuzga ko’ra yozib olish degan ma’noni beradi.

Yozuvda so’zlashuv nutqi tovushlarini va uning barcha o’zgarishlarini talaffuz etilishicha mos ravishda to’liq ifodalab bo’lmaydi. Bunda u yoki bu tilda mavjud bo’lgan alfavitdagi belgilar yetarli bo’lmaydi. Shunga ko’ra alfavitga tegishli o’zgartirishlar kiritish talab qilinadi. Bu belgilar odatda mavjud alfavitdagi harflarning ustidan, yonidan va tagidan shartli belgilar qo’yish yo’li bilan amalga oshiriladi yoki boshqa alfavitdan shartli ravishda belgi (harf) qabul qilinadi.

Transkripsiya bilan transliteratsiya o’zaro mustahkam bog`liqdir. Biror tilning yozma yodgorliklarini yoki ma‘lum bir matnni nashr etishda shu yodgorliklarning yozuv tizimini orqali ifodalash *transliteratsiya* deyiladi. Masalan, arab yozuvidagi yozma manbani hozirgi amalda bo’lgan yozuv tizimi bilan berish kabi. Qiyosiy va tarixiy grammatika, filologik lug`atlar tasvirini izohlashda va nashr etishda transliteratsiyadan foydalанилди.

Transkripsiyaning bir qancha turlari bor. Tekshiruvchining vazifalari va maqsadlari bilan bog`liq holda uning turli ko’rinishlari qo’llanilishi mumkin. Ulardan eng ko’p qo’llaniladigan fonetik va fonologik transkripsiyadir. Fonetik transkripsiyada har bir tovush uchun maxsus belgi qo’yiladi. Fonologik transkripsiyada esa so’z, so’z shakllari va morfemalarni farqlay oluvchi har bir fonema uchun bir belgi qo’yish tamoyiliga asoslanadi. Bunda fonemaning variantlari, ya’ni tovushlarning talaffuzi hisobga olinmaydi.

Shu davrga qadar olimlar tomonidan qator transkripsiylar taklif etilgan. Shulardan dastlabkisi Xalqaro Fonetik Assotsiatsiya tomonidan 1907-1908-

yillarda taklif etilgan transkripsiya hisoblanadi. U fanda Xalqaro Fonetik Alfavit nomi bilan ataladi. Mazkur transkripsiya tizimi lotin alfavitidagi harflarni qisman o'zgartirish asosida tuzilgan. Unga 1925- va 1951-yillarda ma'lum bir tuzatishlar kiritilgan. Uning takomillashishsha akad. L.V.Shcherba, prof. E.D.Polivanov kabilar munosib hissa qo'shdilar. Ayni paytda uning ayrim kamchiliklari ham mavjud: a) barcha tillarning turli tovush xususiyatlari murakkab va noaniq. (Bu haqda qar. «Tilshunoslikka kirish» darsligi, 62-b.).

Fanda yuqoridagi transkripsiyanidan tashqari N.A.Baskakov tomonidan turkiy tillar uchun tuzilgan lotin va rus alfaviti asosidagi birlashgan transkripsiysi, G`ozi Olim Yunusov, S.Ibrohimov, V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonov kabilarning o'zbek dialekt va shevalarida uchraydigan tovushlarni ifodalash uchun tuzilgan transkripsiya tizimlari ham mavjud.

Milliy istiqlol sharofati bilan o'zbek xalqi lotin alifbosiga asoslangan o'z yozuviga ega bo'ldi. Yozuv tarixidan ma'lumki, yangi yozuvga o'tish jarayonida u bilan bog`liq bir qator muammolar yuzaga keladi. Chunonchi, bu o'rinda o'tgan asrning 20-yillari oxirida arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tish davrida yuzaga kelgan muammolarni va ularni hal etish yo'lida qilingan harakatlarni eslab o'tish kifoya qiladi.

Tilshunoslik fanida transkripsiya muhim o'rinni tutadi. Yozuvning o'zgarishi yangi transkripsiya tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Bunda ikkita muhim vazifani hal etish dolzarb bo'lib turibdi. Birinchisi, zamonaviy yozuv texnikasi (kompyuterlar)ning imkoniyatlarini hisobga olgan holda yangi yozuvga mos hamda muvofiq keladigan mukammal transkripsiya (fonetik yozuv) yaratish bo'lsa, ikkinchisi, transkripsion belgilar tizimi yuzasidan bir to'xtamga kelish, qat`iylashtirishdir.

Yangi yozuv manbaiga asoslangan maxsus belgilar tizimini yuzaga keltirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- a) yangi yozuvning o'ziga xos xususiyatlariga;
- b) zamonaviy yozuv texnikasi vrsitalarining imkoniyat va holatiga;
- v) o'zbek tilining ichki fonetik (tovush) tizimi, xususiyati, tabiatи va hodisalariga;
- g) tilshunoslikda hozirgi davrga qadar mavjud bo'lgan shu sohaga doir ilmiy-nazariy mu`lumotlarga;
- d) qadimgi turkiy til davridan to hozirgi o'zbek adabiy tili davriga qadar yozilgan manbalar tilining fonetik tizimiga.

Biz ushbularni hisobga olib, maxsus belgilar tizimini ishlab chiqdik.

a – til orqa, lablanmagan, keng unli (*qara*)

ä – til oldi, lablanmagan, keng unli

ї – til oldi, lablanmagan, tor unli (*kiyim*)

i – til orqa, lablanmagan, tor unli (*qish*)

‘ – til oldi, lablanmagan, qisqa, ў bilan i orasidagi oraliq tovush

– til orqa, lablanmagan, oraliq tovush

u – til orqa, lablangan, tor unli

ü - til oldi, lablangan, о'rta keng unli (*gurunch*)

o’ – til orqa, lablangan, о'rta keng unli (*qo'l, g'o'za*)

ö – til oldi, lablangan, о'rta keng unli (*yo'ldosh, go'zal*)

Undosh tovushlar uchun:

w – lab-tish v: *wishka, wilka.*

v - lab-lab v: *nova, ovqat*

f - lab-tish f: *fikr, farzand*

f^h - lab-lab f: *tuf^hli.*

j – qorishiq tovush Ij: *jo 'ra. jiyda, majlis.*

ŋ – burun tovushi ng (*tong*)

Alifbodagi v, d, d, z, y, k, e, m, n, r, s, t, x, ch, sh, q, , h harflari o'z vazifasida qo'llaniladi. Taranskriptsiya va imloning o'zaro farqlari:

- shevalardagi o'ziga xos xususiyatlarni ilmiy yozuv bilan ifodalanganda, imlo qoidalariga moslab emas, balki so'zlarning talaffuziga, ularning aytilishiga qarab yozib olinadi.
- ilmiy yozuvda bosh harflar qo'llanilmaydi. Shartli ravishda faqat xatboshida va atoqli otlarda bosh harfning yozilishi hisobiga olinadi.
- transkripsyada bir tovush bir belgi bilan berilishi lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. Transkripsyada nima ?
2. Transkripsyadaning qanday turlari mavjud ?
3. Yangi alifboga asoslangan transkripsyada tizimini izohlang.
4. Transkripsyadaning ahamiyati nimada ?

Adabiyotlar

- Решетов В. Б., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.
- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла

Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.

- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.
- Ўзбек шевалари морфологияси. -Т.: Фан, 1984.
- Ўзбек шевалари лексикаси. -Т.: Фан, 1966.
- Ўзбек шевалари лексикаси. Т., Фан. 1991.
- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи, 1996.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. -Т.: Фан, 2005.
- Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. -Т.: Мухаррир, 2011.
- www.turk_dili.google.com.tr
- www.dersimiz.com
- Содиқов А., Абдуазизов А., Ирскулов М. Тилшуносликка кириш. Т., «Ўқитувчи», 1981.
- Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., Ўқитувчи, 1978.
- Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. Т., «Ўқитувчи», 1996.

O'ZBEK SHEVALARINING TASNIFI

E 'tibor qaratiladigan masalalar:

- O'zbek shevalarini o'rganilishi va tasnifi;

- K.K. Yudaxin va Y.D.Polivanovlarning tasnifi;
- G`ozi Olim Yunusov tasnifi;
- A.K. Borovkov tasnifi;
- V.V. Reshetov tasnifi.

Tayanch tushunchalar: tasnif, xalq shevalari, singarmonizm, metisatsiya, gibrildizatsiya.

Hozirgi kunda o'zbek xalq shevalarining bir necha xil tasnifi mavjud. Bu tasniflar turli turkolog va shevashunoslar tomonidan qilingan bo'lib, ayniqsa, I.I.Zarubin, E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin A.K.Borovkov, G`ozi Olim Yunusov, U.Tursunov, Sh.Shoabdurahmonov, V.V.Reshetovlarning tasniflari katta ilmiy qiymatga egadir.

Prof. I.I.Zarubin o'zbek shevalarini bиринчи mamrta umumlashtiruvchi guruhlarga birlashtirish, ya'ni tasnif qilishga urindi. U o'zbek shevalarini 4 guruhg'a bo'lib ko'rsatadi: *Xiva, Farona, Toshkent, Samarqand-Buxoro shevalari*. I.I.Zarubinning bu tasnifida o'zbek shevalari orasida katta o'r'in tutgan, qipchoq (j-lovchi) shevalar va shimoliy o'zbek shevalari hisobga olinmay qolgan.

K.K.Yudaxin o'zbek shevalari tasnifining ikki variantini tavsiya etgan. U o'zining o'zbek shevalari tasnifining 1-variantida o'zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singarmonizmning saqlash darajasiga qarab, quyidagicha guruhlarga ajratadi:

1. Turk tovush tizimi va singarmonizmni saqlagan shevalar.
2. O'zbek va tojik tillarida so'zlashadigan tojik shevalari (Samarqand-Buxoro va boshqa shaharlarning asosiy aholisi).

E.D.Polivanov tomonidan bir qator o'zbek shevalari va dialektlari o'rjanib chiqilgan. E.D.Polivanov o'z tasnifida tildagi ikki holatni ko'zda tutdi:

1) metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi); 2) gibridizatsiya (turli tizimdagi tillarning chatishuvi). U shevalarda uchraydigan barcha

fonetik o'zgarishlarni hisobga olib. o'zbek shevalarini bir necha guruhg'a bo'ldi. Eronlashish nuqtai nazaridan, ya'ni ba'zi o'zbek shevalarining tiklanish protsessida tojik tilining ishtirokini hisobga olib shevalarni quyidagicha guruhlashtirdi.

1. Eronlashmagan shevalar.

2. Eronlashgan shevalar.

Y.D.Polivanov eronlashgan shevalarga Toshkent, Qo'qon, Marg`ilon, Andijon, Shahrixon tip shevalarini kirlitsa, to'la eronlashgan, ya'ni tojik vokalizmini o'zida to'la aks ettirgan shevalarga Buxoro-Samarqand, Xo'jand, O'ratega shevalarini kiritadi. Eronlashmagan shevalarga o'zbek-qipchoq (j-lovchi) lahjasи va Farg'onaning singarmonizmli qishloq shevalarini (Saroy, Andijon, Yo'lguzar, Mankent) kiritadi.

Y.D.Polivanov bu ikki xil (eronlashgan va eronlashmagan) shevalar o'rtasida eronlashishning kuchsizlanishi, gibridizatsiya natijasida turkiylashishi kuchligiga ko'ra, eronlashgan shevalarni 4 xil tipga ajratadi: 2-tip – Toshkent tip shevalari (Toshkent va uning atrofidagi qishloq shevalari (Xonobod, Telov); 3-tip – Qo'qon, Marg`ilon tip shevalari); 4-tip – Andijon-Shahrixon tip shevalari; 4-a tip – uyg`urlashgan yoki umlautli shevalar (Namangan va unga yaqin qishloq shevalari). Y.D.Polivanov tasnifida yana 2 tip sheva ajratilgan. Bular: 6-tip – Shimoliy o'zbek shahar shevalari tipi (Turkiston, Chimkent). 7-tip – Shimoliy o'zbek qishloq shevalari tipi (Mankent, Qoramurut kabi shevalar).

Yuqorida kiritilgan shevalar Y.D.Polivanov tasnifida «Chig`atoy» lahjasini tashkil qilidi. Y.D.Polivanov tasnifiga ko'ra, ikkinchi dialekt (lahja)

o'g`uz dialekti bo'lib, bu dialekt 2 guruh shevani o'z ichiga oladi. Bular quyidagilar: 8-tip – Janubiy Xorazim guruh shevalari (Xiva Yangi-Urganch, Shovot, Xazorasp, Yangiariq, Xonqa shevalari) shu guruhga (8-a) Sho'raxon shevasi ham kiritilgan. 9-tip – Shimoliy o'zbek-o'g`uz guruhi shevalari (Iqon, Qorabuloq shevalari).

Uchinchi dialekt qipchoq lahjasi bo'lib, bu lahja yetti tip shevani o'z ichiga oladi. Bular quyidagilar: 10-tip – O'rta Xorazim shevalari (Gurlan, Bog`ot, Shobboz shevalari); 11-tip – Shimoliy Xorazm shevalari (Xo'jayli, Qipchoq, Qo'ng`iroq, Mang`it); 12-tip – O lovchi tip (Qozoq-nayman, Farg`ona-qoraqalpoq shevalari); 13-tip – qurama shevalar (Ohangron vodiysidagi qurama sheva) Uyshun, Ulut qishloq shevalari ; 14-tip – Shimoliy o'zbek shevalari (Turkistondagi so'zoq, chalaquron qishloq shevalari); 15-tip – O'rta-o'zbek shevalari (qirq shevalari va b.); 16-tip – Janubiy o'zbek shevalari (laqay shevalari va Afg`onistondagi qipchoq-o'zbek shevalari).

Y.D.Polivanov o'z tasnifida o'zbek shvelaridagi taraqqiyotni faqat tashqi omillarga bog`lab tekshirdi. U o'zbek tili va uning shevalarida ro'y bergan o'zgarishlar tilning davrlar mobaynidagi o'z ichki taraqqiyot jarayonining natijasi ekanini anglay olmadidi.

G`ozi Olim Yunusov o'zbek shevalarini avvalo uch lahjaga ajratadi:

- 1) o'zbek-qipchoq lahjasi;
- 2) Turk-barlos lahjasi;
- 3) Xiva-Urganch lahjasi.

Bu lahjalar o'z navbatida fonetik va morfologik xususiyatlariga ko'ra ajratiladi.

O'zbek-qipchoq lahjasi 4 shevaga:

- a) qirq; b) joloyir-laqay; v) qipchoq; g) gurlan shevalariga ajratiladi:

Turk-barlos lahjasi ham 4 shevaga:

Sayram-Chimkent, Toshkent, Andijon, Namangan shevalariga ajratiladi.
Xiva-Urganch lahjasi esa 2 shevaga: Xiva, Qarluq shevalariga ajratiladi.

O'zbek-qipchoq lahjasiga kiruvchi shevalarning fonetik xususiyatlarini quyidagicha ko'rsatib o'tadi:

- a) adabiy tildagi *y* undoshi o'rnida *j* undoshi keladi: *yo'l-jo'l, yigit-jigit* kabi;
- b) adabiy tildagi *g* undoshlari o'rnida *y* tovushi keladi: *sigir-siyir* kabi.
- v) o'zbek adabiy tilidagi *g`* undoshi *v* undoshi bilan almashinib qo'llaniladi: *sog`-sav, tog`-tav* kabi.

Fozi Olim tasnifida qolgan lahjalarning lingvistik farqlarini ko'rsatuvchi belgilar berilmagan.

A.K.Borovkov o'zbek shevalari tasnifining ikki xil variantini tavsiya etadi. U o'z tasnifining birinchi variantiga o'zbek shevalarida uchraydigan fonetik belgilarni (xususiyatlarni) asos qilib oladi. Uning tasnifiga ko'ra o'zbek shevalari ikki guruhga bo'linadi: 1) *o*-lovchi o'zbek shevalari; 2) *a*-lovchi o'zbek shevalari.

1. *o*-lanuvchi o'zbek shevalari. Bu guruhga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Kattaqo'rg'on, Farg`ona, Marg`ilon, Qo'qon, Qarshi, Jizzax, Farg`ona shevalari kiradi. Bu shevalarda unlilar soni 6-7 tagacha bo'ladi. Bu shevalarda ohangdoshlik hodisasi yo'qolgan. Bundan tashqari, ularda aksariyat birinchi bo'g`inlarda *a* o'rnida *o* qo'llaniladi: *ota, bola, soy* kabi. Morfologik jihatdan, jo'nalish kelishigining qo'shimchasi *-ga* va o'rinn-payt kelishigining qo'shimchasi *-da* bir-biridan farq qilinmasdan ishlatiladi. Bu, ayniqsa, Samarqand-Buxoro shevalariga xos xususiyatdir.

2. *a*-lanuvchi o'zbek shevalari. Bu guruh shevalarga Samarqand viloyatining qipchoq shevalari, Surxandaryo va Qashqadaryo viloyatlarining qishloq shevalari, Shimoliy Xorazm shevalari kiradi. Bundan tashqari Qozog`istonning janubidagi Sayram, Chimkent, Qorabuloq, Mankent shevalari kiradi. Bu shevalarda unlilar ohangdoshligi saqlangan. Unlilar soni 8 tadan 10 tagacha bo'ladi. A.K.Borovkov ushbu guruhga kiruvchi shevalarni fonetik xususiyatlariga ko'ra yana ikki kichik guruhga bo'ladi:

a) **y**-lanuvchi o'zbek shevalari;

b) **j**-lanuvchi o'zbek shevalari.

y-lanuvchi guruhga Chimkent, Mankent, Turkiston shevalari kiradi. **J**-lanuvchi guruhga esa Shimoliy Xorazm, Surxandaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining qishloq shevalari kiradi. Bu guruhga kiruvchi shevalarning eng asosiy fonetik xususiyati shundan iboratki, so'zining boshida keladigan **j** undoshi o'rniда **y** keladi: *jaman, jantaq* kabi.

V.V.Reshetov tasnifi. U o'zbek shevalarini tarixiy-lingvistik xususiyatlari va qo'shni tillarni hisobga olgan holda tasnif etadi. Tarixiy lingvistik jihatdan turkiy tillar tarkibi uch qismdan iboratdir. O'zbek tilida esa har uchala qismga oid xususiyatlar mavjud. Shunga ko'ra, o'zbek tilidagi shevalar quyidagicha nomlanadi:

1. Shimoliy-G`arbiy guruhga o'zbek tilining qipchoq lahjasи, unga chegaradosh, yondosh qozoq, qirg`iz va qoraqalpoq tillari kiradi.

2. Janubiy-G`arbiy guruh o'zbek tilining o`g`uz lahjasini o'z ichiga oladi. Bu guruhga yondosh turkman tili taalluqlidir.

3. Janubiy-Sharqiy guruhga qarluq-chigil-uyg`ur lahjasini tashkil qiluvchi ko'pchilik shahar shevalari, hozirgi o'zbek adabiy tili va eski o'zbek adabiy tili, qardosh turkiy tillardan esa yangi uyg`ur tillari kiradi. Mazkur

lahjaga kiruvchi shevalarning ko'pchiligi uchun shu narsa xoski, ular tojik tili bilan juda qadimgi aloqador.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbek shevalarini tasnif qilishning qanday ahamiyati bor ?
2. O'zbek shevalari qaysi olimlar tomonidan tasnif qilingan ?
3. G`ozzi Olim Yunusov tasnifini aytib bering.
4. A.K.Borovkov o'zbek shevalarining qaysi xususiyatlarini hisobga olib tasnif qilgan?
5. V.V.Reshetov tasnifi boshqalarning tasnifidan nima bilan farqlanadi ?

Adabiyotlar

- Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.
- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Кодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар.1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.
- Ўзбек шевалари морфологияси. -Т.: Фан, 1984.
- Ўзбек шевалари лексикаси. -Т.: Фан, 1966.
- Ўзбек шевалари лексикаси.Т.,Фан.1991.
- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи,1996.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши:

Насаф, 2000.

- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. -Т.: Фан, 2005.
- Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. -Т.: Мухаррир, 2011.
- www.turk_dili.google.com.tr
- www.dersimiz.com
- Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк. I, II, III жилдлар. Т., 1960-1963.

SHEVALAR FONETIKASI

E ‘ t i b o r q a r a t i l a d i g a n m a s a l a l a r :

- Fonetik jarayonlarga ta’sir etuvchi omillar;
- O’zbek xalq shevalarida assimilyatsiya va dissimilyatsiya hodisasi;
- Shevalarda tovush tushish hodisasi;
- Shevalarda tovush orttirilishi hodisasi;
- Ohangdoshlik hodisasining mohiyati;
- Ohangdoshlik hodisasining ko’rinishlari;
- Ohangdoshlik hodisasining o’zbek adabiy tilida zaiflashishi sabablari;
- Ohangdoshlikning qipchoq va o`g`uz lahlarida namoyon bo’lishi.

Tayanch tushunchalar: fonetik jarayonlar, assimilyatsiya, dissimilyatsiya hodisasi, ohangdoshlik.

Nutqda tovushlar yakka holda emas, balki so'z tarkibida ma'lum tartibda birikkan holda keladi. So'zlarni talaffuz qilganimizda ayrim tovushlar o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi, natijada tovush o'zgarish ro'y beradi. Masalan, *bir* so'ziga *-ta* qo'shimchasi qo'shilganida **t** tovushining ta'sirida **r** tovushi **t** ga o'tadi, ya'ni *bir+ta=bitta* kabi. Nutq oqimida yuz beradigan bu kabi tovush o'zgarishlari *fonetik jarayonlar* deyiladi. Fonetik jarayonlar qo'shni tovush artikulyatsiyasining boshlanishi va tugallanishi hamda tovushning so'z tarkibidagi mavqeい bilan bog`liq bo'ladi. Shunga ko'ra, fonetik jarayonlar ikki xil: kombinator o'zgarishli va pozitsion o'zgarishli bo'ladi. So'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro ta'siriga ko'ra o'zgarishi *kombinator o'zgarishlar* deyiladi. Bunday o'zgarishlarga *assimilyatsiya*, *dissimilyatsiya*, *proteza*, *epiteza*, *ependeza*, *sinkopa*, *apokopa*, *reduksiya*, *eliziya* kabi fonetik hodisalar kiradi.

Assimilyatsiya lotincha so'z bo'lib, «o'xhash bo'lish» degan ma'noni ifodalaydi. U tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida ulardan birining ikkinchisiga o'xshab qolish hodisasiadir. Odatda, unlilar unlilarga, undoshlar undoshlarga assimilyatsiya qilinadi. Tovushlarning bir-biriga ta'sirining yo'nalishiga ko'ra progressiv va regressiv assimilyatsiya farqlanadi. Oldin kelgan tovush keyingi tovushga ta'sir qilib, o'ziga o'xshatsa progressiv, aksincha, keyingi tovush oldingisiga ta'sir qilib, o'ziga o'xshatsa regressiv assimilyatsiya deyiladi.

Progressiv assimilyatsiyaga misol: *ketdi-ketti* (Toshkent), *toshni-toshshi* (Farona). Regressiv assimilyatsiyaga misol: *yigitcha-yigichcha*, *tirno-tinno*, *so'zsiz-so'ssiz* (Buxoro). Assimilyatsiya moslashish darajasiga ko'ra ikki xil tipga ajraladi: to'liq va to'liqsiz. Bir tovush ikkinchi tovushni aynan o'zi kabi tovushga aylantirsa *to'liq assimilyatsiya* bo'ladi. Misol: *suvni-suvvi* (Toshkent), *uch so'm-usso'm*, *qanday-qannay* (Buxoro). Bir tovush ikkinchi tovushni o'ziga qisman o'xshatib olsa *to'liqsiz assimilyatsiya* bo'ladi. Misol: *o'sdi-o'sti*

(jarangsiz **s** tovushi jarangli **d** ni jarangsiz tovushga aylantirgan), *yuzta-yusta, tanbur-tambur, yopdi-yopti*.

Dissimilyatsiya lotincha so'z bo'lib, *noo'xshashlik, o'xshamaslik* degan ma'noni ifodalaydi. Bir xil o'xshash tovushlarning o'zaro ta'siri asosida vujudga kelgan noo'xshashlikka *dissimilyatsiya* deyiladi. Misol: *kombayn-konbayn, zarur-zalur, uchtadan-ushtadan*. Mazkur hodisa assimilyatsiyaga nisbatan kam tarqalgan. Ba'zi turkologik ilmiy adabiyotlarda bu ikki hodisa, ya'ni assimilyatsiya va dissimilyatsiya ajratilmaydi.

Metateza – so'z tarkibidagi tovushlarning o'zaro o'rinni almashishi o'zbek tilida, asosan, jonli so'zlashuvga xos bo'lib, adabiy tilda kam uchraydi. Misol: *tuproq-turpoq, daryo-dayro, to'ramoq-to'ramoq, yomir-yomir, avhol-ahvol*.

Spirantizatsiya – portlovchi undoshning siraluvchi undoshga utishi: *qishloq-qishloimiz, kabob-kavob* kabi. Tovush tushish hodisasining quyidagi turlari bor:

- 1) prokopa – so'z boshidagi tovushning tushib qolishi: *yiroq-iroq, yigna-igna, yaoch-aoch* kabi;
- 2) sinkopa – so'z o'rtasida tovushning tushib qolishi: *biroq-broq, Fotima-patma* kabi;
- 3) apokopa – so'z oxirida tovushning tushib qolishi: *baland-balan, ishtish, mashina-mashin, gazeta-gazit* kabi. Ushbu hodisa aksariyat o'rinnlarda o'zlashgan so'zlarda yuz beradi;
- 4) eliziya – ikki so'z tutashgan joyda bir yoki necha tovushning tushib qolishi tilda ixchamlikka intilish (ellipsis) natijasida yuzaga keladi: *qayin ona qaynona, har nima-harna, shu yer-shyer* kabi.

Tovush orttirilishining quyidagi turlari bor:

1) proteza – so’z boshida tovush orttirilishi o’zbek tilining jonli so’zlashuv nutqida (asosan, boshqa tillarda o’zlashtirilgan so’zlar talaffuzida) ko’proq uchraydi: *stakan-istakon, shkaf-ishkop, rus-o’ris, stul-ustul* kabi. Qipchoq shevalarida diftong (qo’sh unli)lashish holati ham mavjud: *o’rta-uo’rta, o’yin-uo’in* kabi. Shuningdek ushbu shevalarda forsiy va arabiylar so’zlarning boshlanich qismiga i, u, o’ o’nilarining qo’shib talaffuz qilish holatlari ham bor: *ro’mol-o’ramol, rashk-irashk, ro’za-o’raza* kabi;

2) epenteza – so’z o’rtasida tovush orttirilishi ham asosan so’zlashuv nutqiga xosdir: *traktor-tiraktir, tramvay-tiramvay, kasb-kasip, ilm-ilim, asl-asil* kabi. Bunda, asosan, so’z o’rtasida, oxirgi va bosh bo’inida, portlovchi va siraluvchi undshlar qator kelganda, portlovchidan so’ng qisqa i, ayrim o’rinlarda esa u yoki a unli fonemalarining orttirilib talaffuz qilinishi kuzatiladi: hukm-hukum, umr-umur, oklad-akalad kabi;

3) epiteza – so’z oxirida tovush orttirilishi: *tank-tanka, kiosk-kioska, bank-banka*. Ushbu hodisani, asosan, o’zlashgan so’zlarda kuzatish mumkin. O’zbek xalq shevalarida *reduksiya* hodisasi ham ko’p uchraydi. Unli tovushlarning urg`usiz bo’g`inlarda kuchsizlanishi yoki o’zgarishi reduksiya deyiladi. Reduksiyaga uchragan unlilar juda qisqa talaffuz etiladi: *olma-alma, bola-bala* kabi.

Qaysi sohada bo’lmasin, inson hamisha qulaylikka intiladi. Undagi bu xususiyat nutq jarayonida ham ko’zga tanshlandi. Agar talaffuz me’origa e’tibor berilsa, ayrim holatda ba’zi so’zlardagi tovushlarning tushib qolganligi, yo ularning o’rin almashganligi, yo so’zning oldidan bir tovush orttirilganligi kabi turli fonetik jarayonlarning guvohi bo’lamiz. Shubhasiz, bu kabi tovushlarning o’zgarishi kishilarning nutq jarayonida osonlikka, qulaylikka intilishi natijasida kelib chiqadigan hodisadir. Tilda bu kabi jarayonlar juda ko’p

bo'lib, albatta ular bir-biridan farq qiladi. Ammo bu fonetik jarayonlar ichida eng murakkabi ohangdoshlik hodisasi bo'lib, uning qonunlarini haqida turlicha qarashlar mavjud.

Ohangdoshlik hodisasi turkiy tillarda qadimdan mavjad bo'lib, u tovushlardagi uyg`unlikni, o'zaro ohangdoshlikni ta'minlaydi. Odatda, ohangdoshlik haqida gap ketganda, ko'pincha, unlillardagi til oldilik va til orqalik hamda lablanganlik va lablanmaganlik to'risida gapiriladi. Lablanganlik, ya'ni lab uyunligi faqat unli tovushlarga xos hodisa.

Ammo tanglay uyg`unligiga binoan, tovushlardagi til oldilik va til orqalik xususiyati hisobga olinadi. Bunday ajralish nafaqat unli tovushlarda, balki tilimiz tarixiga nazar tashlasak, undoshlarda ham mavjud bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak. Qadimgi turk-run yoxud O'rxun-Enasoy alifbosida juft undosh tovushlarning til oldi va til orqa shakllari uchun alohida-alohida belgilar qabul qilingan. Yozuvda til orqa undoshlari til orqa unlilari bilan, til oldi undoshlari til oldi unlilari bilan birga yozilgan. Bu qonuniyat umuman buzilmagan. So'zlarda nafaqat unlilar, balki undosh tovushlar mosligi ham dastlab to'liq saqlangan. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, ohangdoshlik hodisasi ikki ko'rinishga egadir: 1. Tanglay ohangdoshligi 2. Lab ohangdoshligi.

Tanglay uyg`unligi mohiyati shundan iboratki, ularda so'z tarkibidagi unlilar ohangdoshligi qattiq va yumshoq holatda qo'llaniladi. Qattiq unlilar deganda, odatda, til orqa qator unlilari va yumshoq unlilar deganda, til oldi qator unlilari tushuniladi. Tanglay ohangdoshligining qonuniyatini quyidagicha:

1) agar so'z tarkibidagi unli, ya'ni birinchi bo'g`inni hosil qiluvchi unli, orqa qator unli qattiq bo'lsa, u holda ikkinchi hamda so'nggi bo'g`inlarda unlilar ham orqa qator unlilari qattiq bo'lishi lozim. Masalan: *g`aram*, *qaram* kabi.

2) agar so'zning birinchi bo'g`inidagi unli tovush til oldi qator unlisi (yumshoq) bo'lsa, u holda so'zning oxirgi bo'g`inigacha hammsida til oldi qator unli qo'llaniladi. Masalan: *ko'klam*, *talabalar* kabi. Tanglay uyg`unligi butun so'z, uning o'zagi va qo'shimchalariga to'la taalluqli bo'ladi. *Qishloqni*, *guldan* kabi. Lab ohangdoshligi xususiyati ham tanglay uyg`unligiga o'xshashdir. Lekin, u tanglay uyg`unligiga qo'shimcha ravishda lablashish jihatidan ham moslashadi. Masalan, so'z boshida yoki so'z o'rtasida lablashgan til oldi (yumshoq) unli ishlatilsa shu so'zning oxirida yoki qo'shimcha qismida lablangan til oldi (yumshoq) unlisi keladi va aksincha.

Ohangdoshlikdagi uchinchi jarayon – bu undosh tovushlardagi jaranglilik va jarangsizlik hodisasi sanaladi. Bu jarayon ham turkiy tillar tarixining qadimgi davridan boshlab amal qilgan. Ammo qadimgi turkiy tilda aksariyat undoshlardagi jaranglilik va jarangsizlik qonuniyatiga amal qilinsa-da, ba'zi l, n, r sonor undoshlaridan so'ng qo'shimchalarning jarangsiz shakli qo'shilib kelish holati ham uchraydi. Masalan: *yerti* (yerdi), *ko'lta* (ko'lda) kabi.

Eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilda ohangdoshlik qonuniyati mavjud bo'lgan. Hozirgi o'zbek tilida ohangdoshlik haqida esa turlicha fikr mavjud. Fitrat «Sarf» kitobida yozadi: «Turk tilining butun tarmog`ida bo'lgani kabi bizning tilda ham so'zlar ohang e'tibori bilan yo'g`on, ingichka bo'lib ikkiga ajraladi. Bu ohang masalasini eski yozma asarlarda ko'p ko'ra oлganimiz kabi, dalada yashaganlar orasida ham ko'proq uchratish mumkindir. Fors adabiyoti, madrasa ta'siri bilan buzilg`on shahar shevalarida bu holni oz ko'rganimiz bilan bizning shevada yo'g`onlik, ingichkalik ohangi yo'qdir, deb bo'lmaydir».

Amerikalik turkshunos Bill Fiyerman ushbu masala bo'yicha quyidagilarni qayd etadi: «Yozuvning o'zgarishi qator muammolarni yuzaga keltirdi. Masalan, ohangdoshlik masalasi. Lotin yozuviga o'tilgach, o'zbek

tilidagi to'qqiz unlidan 1939-yilga kelib atigi oltitasi saqlanib qolgan. Bu, va umuman, yozuvning o'zgarishi tildagi asriy ohangdoshlik saqlanishiga ziyon yetkazdi». Ammo o'zbek shevalarida, ayniqsa, qipchoq va o'g`uz lahjasida ma'lum darajada saqlangan. Tanglay ohangdoshligi ushbu shevalarda mavjud.

Turkiy tillarning hammasida ohangdoshlik qonuni, deyarli, o'z kuchini saqlab qolgani holda, o'zbek adabiy tilida uning zaiflashib ketishiga tilimizning ichki qonuniyati va uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi ma'lum ijtimoiy-tarixiy omillar sabab bo'lган. Ilmiy va diniy adabiyotlar tufayli, bir tomondan arab tili talaffuz qoidalarining kuchli, ikkinchi tomondan, fors-tojik mumtoz adabiyoti va yonma-yon aralashib yashovchi tojik xalqi bilan doimiy iqtisodiy-madaniy hamkorlik yetakchi o'zbek urug`lari tiliga uning fonetik qurilishiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Shuning natijasida, o'zbek tilida, eng avval va kengroq bu tilning markaziy shevalarida ohangdoshlikning darz ketdi.

Umlaut. Bu qonuniyat fanda unlilarning regressiv assimilyastiyasi deb ham yuritiladi. Bu qonuniyatga ko'ra affiksdag'i old qator unlisi asosdagi (u aksariyat xillarda bir bo'g`inli bo'ladi) orqa qator unlisini o'z harakteriga moslashtirib oladi: *sen - san*», *ana shu - ash'*, *bosh - bash'*. Bu qonuniyat Namangan, O'sh shevalarida, qisman, o'zbek adabiy tilida qayd qilinadi.

Unlilarning birlamchi, ikkilamchi va emfatik cho'ziqliklari. Turkiy tillarning dastlabki davrlarida so'zlarning birinchi bo'g`inida unlilar cho'ziq. talaffuz etilgan. Bunday cho'ziqlik boshqa tovush ta'sirida emas, balki qadimgi turkiy tilning tabiatini bilan bog`liqdir. Unlilarning bunday cho'ziqligi hozirgi Xorazm, Forish va shimoliy o'zbek shevalarida saqlanib qolgan: *tu:sh*, *a:d*, *ba:la* va boshqalar. Aslida bu kabi unlilar cho'ziqligi urg`uning dastlabki bo'g`inga tushishi xususiyati bilan boshangan. Bunday cho'ziqlik birlamchi cho'ziqdik deyiladi. Yondosh kelgan undosh tovushning nutqda talaffuz qilinmasliga natijasida unli tovush cho'zilishi mumkin: *sandu*: *ma:ta:*. Bunday cho'ziqlik ikkilamchi cho'ziqlik deyiladi.

Emfatik cho'ziqlik hozirgi-kelasi zamon fe'llarida uchraydi, ya'ni bu fe'l shaklida qatnashadigan ravishdosh ko'rsatkichi odatdagidan ko'ra cho'ziq (ikkilangan cho'ziqlik) talaffuz qilinadi yoki uning bo'lishsiz shaklida «i» undoshi tushib qoladi va bo'lishsizlik affiksidiagi - a unlisi ikkilangan cho'ziqlikka ega bo'ladi: *b'lm::man*.

Diftonglar. O'zbek shevalarida diftong, ya'ni talaffuzda tovush eksursiyasi (boshqa tovush unsurlari va to'xtam) hamda rekursiyada asosiy tovush talaffuzi saqlanishi diftongdir. Qipchoq shevalarida bu fonetik hodisa keng tarqalgan.

Kontrast (juft) unlilar: singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalarida unlilar old qator va orqa qator mavqelarga (pozitsiyalarga) ega bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Fonetik jarayonlarning mavjudligi sabablari va omillarini izohlang ?
2. Assimilyatsiya va dissimilyatsiya hodisasisining mohiyat-mazmunini tushuntiring ?
3. Tovush orttirilishining qanday tiplari mavjud ?
4. Tovush tushishining qanday tiplarini bilasiz ?
5. Ohangdoshlik nima ?
6. Ohangdoshlik hodisasining qanday ko'rinishlari mavjud ?
7. Ohangdoshlik qonuniyatining o'zbek adabiy tilida zaiflashishiga sabab bo'lgan omillarni aytинг ?
8. Qaysi lahjalarda ohangdoshlik hodisasini kuzatish mumkin ?

Adabiyotlar

- Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.

- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар.1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.
- Ўзбек шевалари морфологияси. -Т.: Фан, 1984.
- Ўзбек шевалари лексикаси. -Т.: Фан, 1966.
- Ўзбек шевалари лексикаси.Т.,Фан.1991.
- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи,1996.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. -Т.: Фан, 2005.
- Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўzlари. -Т.: Мухаррир, 2011.
- www.turk_dili.google.com.tr
- www.dersimiz.com
- Исҳоқов Ф. Эски ўзбек тили ва ёзуви. Т., 1995.
- Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиёт босқичлари. Т., 1996.
- Неъматов Ҳ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. Т., 1987.
- Билл Фиерман. Яшараётган тафаккур. «Ёшлик» журнали, 1990, 2-сон.
- Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. Т., 1969.
- Азизов О ва б. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси. Т., Ўқитувчи, 1986.

SHEVALAR LEKSIKASI VA LEKSIKOGRAFIYASI

E’tibor qaratiladigan masalalar:

- Shevalarga xos bo’lgan leksik qatlam;
- Shevalardagi so’zlarning shakl va ma’no munosabati: omonim, sinonim, antonim va ko’p ma’noli so’zlar;
- Shevalardagi eskirgan, tabu, evfemizm so’zlar;
- Shevalarda qo’llanuvchi frazeologik iboralar.

Tayanch tushunchalar: leksik qatlam, omonimlar, sinonimlar, antonimlar, ko’p ma’noli so’zlar, evfemizmlar, frazeologik iboralar.

O’zbek shevalari o’zining fonetik va grammatik xususiyatlari bilan bir qatorda leksik xususitlariga ham ega. Shevalarga xos bo’lgan so’zlarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) umumxalq tiliga xos bo’lgan umumiyl leksik qatlam: *yomg`ir, shamol, qor, ot, it, tovuq, suv, yurmoq, ichmoq* kabilar; 2) shevalargina xos bo’lgan leksik qatlam: asalari-*zambir* (Xor.); ko’rshapalak-*yarqant* (Xor.); chumoli-*qarindja* (Xor.); tuxum-*mayak* (qip)-*yumurtqa* (o’g`uz) kabilar. Qipchoq shevalarida *ota, amaki* o’rnida *aka* so’zi qo’llaniladi. O’g`uz va qipchoq shevalarida *ona* o’rnida *opa* so’zidan foydalaniladi.

Ma’lum bir hududda muayyan bir sohaning rivojlanishi shu yerda yashovchi aholi tilida boshqa hududdan farqli ravishda maxsus atamalarni vujudga keltirgan. Chunonchi, qipchoq sheva vakillari hayotida chorvachilik muhim o’rin tutganligi va ular shu soha bo’yicha ko’p shug`ullanganligilari bois, ularda shu soha atamalari ko’p uchraydi. Misollarga e’tibor qarataylik. Yoshiga ko’ra **ot** quyidagicha nomlanadi:

qulun (bir yoshgacha bo’lgan ot);

kaltatay (birdan ikki yoshgacha bo'lgan ot);
g`o`nan (ikkidan uch yoshgacha bo'lgan ot);
do`nan (uchdan to'rt yoshgacha bo'lgan ot);
beshli (to'rtdan besh yoshgacha bo'lgan ot),
djangaziy (yangi oziq; besh yoshli oziq tishi chiqqan ot);
ekaziy (ikki oziq; olti yoshli ot);
uchaziy (uch oziq; yetti yoshli ot) kabi nomlar bilan ataladi.

«**Tuya**» tushunchasi uchun quyidagi nomlardan foydalaniladi:

bo`ta yoki *bo`taloq* (bir yoshgacha bo'lgan tuya);
taylaq (birdan ikki yoshgacha bo'lgan ot);
o`simli (ikkidan uch yoshgacha bo'lgan tuya);
nar (uchdan to'rt yoshgacha bo'lgan erkak tuya);
tuya (to'rt yoshdan yuqorisi).

«**Qo'y**» tushununchasi esa:

to`qlu (ikki yoshli qo'y);
hishak (uch yoshli qo'y);
chari (to'rt yoshli qo'y);
pandji (besh yoshli qo'y) kabi so'zlar qo'llaniladi.

Har bir lahja va shevaga xos leksik qatlam mayjudligini quyidagi jadvaldan ham anglab olish mumkin.

Qarluq-chigil-uyg`ur				O'g`uz	Qipchoq
Toshkent	Samarqand	Buxoro	Farg`ona		
muchicha	musicha	musicha	misilcha	qumri	musichi
arg`imchoq	arg`unchoq	alvonch	hayunchak	sarindjaq	qalgancha
duxoba	baxmal	baxmal	barqit	baxmal	baxmal
chumoli	mo'rcha	mo'rcha	chumalik	qarindja	chumali
asalari	asalari	asalari	asalari	zambir	asalari
tuxum	tuxum	tuxum	tuxum	yumo'rta	mayak
yuray	yurak	yurak	yurak	yurak	jurak
choch	soch	chach	chach	sach	sach

U yoki bu ma'nodoshlar qatoriga kirgan so'zlarning ba'zilari adabiy tilda va lahjalarda uchramasligi mumkin. Shevadagi bunday ma'nodoshlar ma'no va talaffuzi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Masalan, o'zaro mustahkam bolanganlik, tuishganlik ma'nolarini ifodalash uchun o'zbek adabiy tilida *qarindosh*, *urug'*, *avlod* singari sinonimlar qo'llanilsa, qipchoq shevalarida ushbu so'zlar keng qo'llanilishi bilan bir qatorda *tamir*, *zat*, *tuvishqan* kabi so'zlar ham keng qo'llaniladi.

Boshqa tillardan shevalarga so'zlarning o'tishi natijasida arabcha, forscha-tojikcha, ruscha so'zlar bilan turkiy (o'zbekcha) so'zlar ma'nodoshlik munosabatiga kirishgan: kuch-qudrat (o'zb.-ar.), ko'k-bahor (o'zb.-f.) kabi. Bu xususiyat turli shevalarda so'zlashuvchi ko'pchilik uchun xosdir. Tildagi shakldosh so'zlar ko'pgina olimlarning diqqatini tortgan qiziqarli leksik qatlamlardan sanaladi. Ular adabiy tilni, jumladan, badiiy asar tilini

rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda shakldoshlik masalasiga baho berishda ikki xil qarash mavjuddir. Ba‘zi olimlar shakldoshlikni ijobjiy hodisa sifatida izohlasalar, ba‘zilar esa uni to’g`ridan-to’g`ri mutlaqo salbiy hodisa sifatida baholaydilar. O’zbek tili shakldosh so’zlarga nihoyatda boy. Tilimizning bu xususiyati adabiyotda yangi janr – tuyuq janrining vujudga kelishiga sabab bo’lgan. Misol:

Ko’nglum hayranki baqsam, dag`i bar,

Har necha dardimni desam, dag`i bar.

Qilcha tanga bari ishqing yar edi

Biz sari bo’ldi firaqning dag`i bar.

Bu tuyuqdagi «dag`i» so’zi birinchi misrada «yara», ikkinchi misrada «yana, tag`in» va to’rtinchi misrada «tog`» ma’nosida kelgan. Qipchoq lajhalarida «ich» so’zining quyidagi ma’nolari mavjud: ich (uch – son), ich (biror narsaning ichi), ich (ichmoq), ich (a’zo, qorin) ma’nolarida qo’llaniladi. «Qirq» so’zining esa quyidagi ma’nolari bor: qirq-fe`l, harakat, qirq-marhum o’lgan kuniga qirq kun to’lgan kun, marosim, qirq-uruning nomi. Bunday xususiyatga ega bo’lgan so’zlar haqida «Devonu lug`otit turk» asarida ham ancha keng ma‘lumot berib o’tilgan.

«Ayaq» so’zini turklar *idish, kosa, piyola* ma’nosida ishlatsa, o’g`uzlar *janoq* (chanoq) ma’nosida qo’llashganligini Mahmud Koshg`ariy ta’kidlab o’tadi. Bundan tashqari mazkur asarda yana quyidagi so’zlar izohi berilgan: *ingak – sigir* (turkiylar), *ingak – toshbaqanining urg`ochisi* (o’g`uzlar); *kend – viloyat* (turkiylar), *kend – qishloq* (o’g`uzlar); *ashlig` – oshxona* (turkiylar), *ashlig` – bug`doy* (o’g`uzlar) va h.k.

Ko’p ma’nolilik o’zbek tili leksikasining o’ziga xos belgilaridan biridir. Asosan, o’zbekcha so’zlar ko’p ma’nolik xususiyatiga ega bo’ladi. Chunki

bunday so'zlar hayotimizda uzoq yillar davomida ko'p qo'llanila berib, shu holatga kelib qolgan. Muhim ilmiy-nazariy fikrlar aytib o'tilgan o'zbek adabiy tilidagi *bosh*, *yuz*, *oyoq*, *qanot*, *bel*, *til*, *burun*, *lab* kabilar lahja va shevalar matyeriallarida ham turli ko'rinishlarda qo'llaniladi va o'z o'rnida ular ko'p ma'nollik xususiyatiga ega bo'ladi. Misol: *bir bosh juzum*, *bashimni ag`ritma* (qip) kabi.

Ko'p ma'nolilik hodisasi voqelikdagi bir narsa-buyum xususiyati nomini boshqasiga ko'chirish, o'tkazish orqali sodir bo'ladi. So'z ma'nosining ko'chish usuli to'rt xil bo'ladi: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifaviy ko'chish.

Bir predmet nomining ikkinchi predmetga shakl, rang va boshqa biror jihatdan o'xshashligi asosida ko'chirilishi *metafora* deb ataladi. Bir predmet nomining ikkinchisiga ko'chirilishi ular o'rtasidagi haqiqiy aloqaning mavjudligiga asoslansa, u *metonimiya* deyiladi. Misol: *Eshmat ikki piyola ichdi* («choy ichdi» ma'nosida); *Navoiyni ko'p o'qiydi* («Navoiy asarlarini ko'p o'qiydi» ma'nosida) kabi. Biror predmetning nomi boshqasiga ular bajargan vazifasidagi o'xshashlik asosida ko'chirilsa vazifaviy ko'chirish deyiladi. Misol: *qnot* (qushning qanoti), *qanot* (samolyotning qanoti); *otlandi* (otga mindi), *otlandi* (biror joyga borishga hozirlandi) kabi.

Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabati asosida ko'chirilsa, *sinekdoxa* yo'li bilan ko'chirish deyiladi. Misol: *tirnoq* (a'zo), *tirnog`* (tirnog`ga zor – farzandga muhtoj ma'nosida); *tuyoq* (qism) – *tuyoq* (butun: *Tuyoq sonini ko'paytirishni o'layapman*) kabi. Zid ma'noli so'zlar lahja va shevalar leksikasida muhim o'rin tutadi. Qarluq-chigil-uyg`ur lahjasiga xos bo'lgan antonimlarga misol: *yaxshi-yomon*, *uzun-qisqa*, *kunduz-kecha*, *boy-kambag`al* va b. O'g`uz lahjasida qo'llanuvchi zid ma'noli so'zlarga misol: *alis-yaqin*, *ulli-genja*, *avlaq-yaqin* (uzoq-yaqin), *say-cho'nqir* (sayoz-

chuqur) va b. Qipchoq lahjasida qo'llanuvchi zid ma'noli so'zlarga misol: *qalin-qilamiq, achchi-chuchchi, alis-jaqin, kunchiish-kunbatish* va b.

Shevalar leksikasida qator eskirgan so'zlarning ham mavjudligini ko'rish mumkin. Odatda, bunday so'zlar tilshunoslikda ikki guruhga ajratilib tahlil etiladi, ya'ni arxaizmlar va tarixizmlar sifatida. Eskilik buyog'i bor til birligiga arxaizm deyiladi. Masalan, o'g'uz lahjasida «magazin» so'zi o'mida avvallari, «kaparat»; «konvert» so'zi o'rnida «lapa»; «omborxona» so'zi o'rnida «talak» so'zi qo'llanilgan.

Tarixizmlar – o'tmishda mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Shevalarda bunday xususiyatga ega bo'lgan so'zlar uchraydi. Masalan, *qozি, quloq, to'ra, mingboshi, yuzboshi, omoch, paranji* kabilar shular jumlasidandir. O'g'uz lahjasiga tegishli bu kabi so'zlardan ayrimlarini quyida keltirib o'tamiz: kunda (omoch), vahim (qabristonga tegishli yerlar), jarchi, diravaz (moki asbobi) va b.

Shevalarda tabu va evfemizmlar ham ma'lum darajasida uchraydi. Tabu so'zi polineziya tilidan (Tinch okeandagi orollarda yashovchi ko'chmanchi elatlar tili) olingan bo'lib, shaxsiy va diniy odatlar jihatidan biror narsani man etish, jumladan, ma'lum hayvonni ov qilish yoki o'simlikni sindirishni man etish bilan boliqdir. O'tmishda biror kishi o'lganda, qabiladan o'lim sharpasini yo'qotish uchun marhumning nomini aytish man etilgan. Tabu etnik tushuncha bo'lib, qandaydir predmetning, harakatning nomini aytishini man qilishdir. Bunday odatning tilga tadbiq qilishi bilan lingvistik tabu yuzaga kelgan.

Ayrim yirtqich hayvonlarning nomini tilga olish (aksari hollarda kechalari) man etilgan. Qariyalar bu narsani quyidagicha izohlaydilar. Ularning aytishlaricha, agar bunday hayvonlarning nomi tilga olinsa, ular zarar yetkazishi mumkin emish. Masalan, «bo'ri» so'zini kechalari aytish man etilgan. Aftidan xalqimiz o'rtasida tez-tez ishlatilib turiladigan «bo'rini yo'qlasang, qulog'i

ko'rinar» degan maqol dastlab shu tabu hodisasining natijasi o'laroq vujudga kelgan bo'lsa kerak. «Ilon» so'zi o'rnida «arg`amchi», «qamchidasta» so'zlarining qo'llanishi ham tabuga misoldir.

Odamning nutq faoliyati axloqiy me'yorlarga rioxaliga qiladi. Axloqiy va madaniy jihatdan qo'llanishi tadqiqlangan yoki noqulay deb topilgan so'zlar o'rnida boshqa so'z va iboralarning qo'llanilishi evfemizmlar (grekcha, «yaxshi» «mayin gapiraman» ma'nosida) deb ataladi. Masalan, qipchoq shevalarida «o'ldi» so'zi o'rnida «tomom bo'ldi», «uzildi», «jon berdi», «qaza qildi», «dunyodan o'tti», «nabud bo'ldi» kabi so'zlar qo'llaniladi.

Qarluq-chigil-uyg`ur lahjasida «xotin» so'zi o'rnida «umr yo'ldoshi», «rafiqa», «qalliq», «oila» kabi so'zlar qo'llaniladi. O'zbek tili taraqqiyoti jarayonida shevalardagi tabular yo'qolib boradi, evfemizmlar esa ko'payib boryapti. evfemizmlar gaplarni chiroyligi, silliq, ta'sirchan qilish borasida muhim ahamiyatga egadir. U har bir madaniyatli kishi uchun muhim leksik uslubiy vosita vazfasini bajaradi. Frazeologiya deb nutqimizdagi turg'un va barqaror so'z birikmalariga, iboralarga aytildi. Ular ikki va undan ortiq so'zlarning turg'un birikmasidir. Frazeologizmlarning tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qarmay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotSIONAL-ekspressiv ma'noni ifodalaydi.

Shevalar frazeologik iboralarga juda boy. Ulardan ayrimlarini quyida keltirib o'tamiz: *yer qattiq, osmon baland* (iloji yo'q, hal qilib bo'lmaydigan); *ko'rpanga qarab aya uzat* (hisob-kitob bilan ish yurit); *bardi-keldisi jo'q* (aloqasi yo'q); *kuni qurig'a o'tti* (foydasiz bo'ldi) kabilar. Ushbular qipchoq lahjasiga tegishli misollardir. Qarluq-chigil-uyg`ur va o'g'iz lahjasida ham bu kabi frazeologik iboralar juda ko'plab uchraydi. Misol: *dimog`i kuymoq* (xafa bo'lmoq), *boshiga ko'tarmoq* (ardoqlamoq); aydi etak minan yavun bo'lmas (kamchilikni yashirib bo'lmaydi) kabilar.

Umuman olganda, xalq shevalari bitmas-tuganmas xazina bo'lib, o'zbek adabiy tilini, uning leksik tarkibini boyituvchi eng muhim manba hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Shevalargina xos leksik qatlam tushunchasini izohlang va misol keltiring ?
2. So'zlarning ko'chma ma'noda ishlatalishi deganda nimani tushunasiz va uning usullarini aytib bering ?
3. Shevalardagi sinonim, omonim, antonim so'zlarga mosl keltiring ?
4. Ko'p ma'noli va eskirgan so'zlarga misol keltiring ?
5. Tabu, evfemizm va frazeologik iboralarning qo'llanish holatlari shevalarda qanday ?

Adabiyotlar

- Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.
- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар.1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.
- Ўзбек шевалари морфологияси. -Т.: Фан, 1984.
- Ўзбек шевалари лексикаси. -Т.: Фан, 1966.
- Ўзбек шевалари лексикаси. Т., Фан. 1991.
- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи, 1996.

- Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Карши: Насаф, 2000.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. -Т.: Фан, 2005.
- Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. -Т.: Мухаррир, 2011.
- www.turk_dili.google.com.tr
- www.dersimiz.com

LINGVISTIK GEOGRAFIYA

E‘tibor qaratiladigan masalalar:

- Lingvistik geografiya va u xaqida qisqacha ma‘lumot;
- Lingvistik geografiyaning shakllanishi va taraqqiyoti;
- Dialektologik atlas va xaritaning ahamiyati;
- Soha rivoji uchun galdeg vazifalar.

Tayanch tushunchalar: lingvistik geografiya, atlas, xarita.

Lingvistik geografiya (qisq. Lg) til hodisalarining tarqalishi o’rinlarini, ularda tarixiy taraqqiyot jarayonida yuz bergan o’zgarishlarni o’rganish uchun xizmat qiladi. Lg XIX asrning o’rtalarida fan sifatida shakllandi. Uning asoschilarini fransuz Jan Jils’ron, germaniyalik Georg Venkyer, F.Vrede, P.Meyyer Rossiyalik I.I.Sreznevskiylardir. Ular shu soha yuzasidan chuqur tadqiqot ishlari olib bordilar va mazkur fanning asosiy o’rni, predmeti va vazifalarini belgilab berdilar. Shuningdek, ular lingvistik kartaga tushurilgan

izoglossa (izofonema – fonetik belgi) izomorfema-morfologik belgi, izoglossa – leksik belgi) tushunchasini kiritdilar.

Tillarning, jumladan, ularning quyi tarmoqlari hisoblangan lahja va shevalarning tarqalish holati turli belgilar bilan ko'rsatiladi. Ana shunday belgilar bilan til yoki lahjaning joylashgan o'rnlari ifodalab berilishida Lg da yunoncha, «izoglossa» deb yuritiladi va bir xil, o'xhash, teng kabi ma'nolarni bildirishga xizmat qiladi. Bunda fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarni aniq ko'rsatish uchun har xil belgilar ishlatiladi. Lg da dialektologik atlaslar muhim o'rin tutadi. Biror til yoki dialektga xos xarakterli lingvistik xususiyatlarning tarqalish xududini yoki chegarasini aks ettirgan kartalar yiindisi dialektologik atlas deyiladi. Bunday atlaslarning dastlabkilari XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida yuzaga kelgan.

Fransuz olimlari Jon Jil'sron va Edmoklar 1902-1912-yillar mobaynida 12 jilddan iborat «Fransuz tili atlasi»ni, nemis olimlari Geog Vekkyer va F.Vredelar 1876-1926-yillar oraliida «Nemis tili atlasi»ni, mashhur nemis olimi P.Mayyer rahbarligidagi Marburg nemis dialektologiyasi markaziy instituti XX asr boshlarida «Nemis leksikologik atamasi»ni nashr ettirdilar.

O'zbek tilshunosligida Lg fani sohasida 1944-yili ish boshlandi. Shu o'rinda bir jihatni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Lg fan sohasi sifatida o'tgan asrda shakllangan bo'lsada, shevalarga oid xaritalar turkiy olimlar, jumladan, M.Koshariy tomonidan XI asrda tuzilgan. (Bu haqda to'liqroq ma'lumot olish uchun qar. M.Koshariy, DLT, I tom. 1960. 64-b.). Turkiy tillar geografiyasi ma'lumotlari Fozi Olim Yunusov, A.K.Borovkov, Ulu Tursunov, V.V.Reshetov, S.Ibrahimov, A.Aliev, Hisom ulomov, Xudoyberdi Doniyorov singari olimlarning nomlari bilan bolangan. Ular o'zbek xalq shevalarini o'rganish, tahlil etish va ularni xaritalarga tushurib, shevalarimiz atlasi yuzaga kelishiga munosib hissa qo'shdilar.

1944-yili prof. A.K.Borovkov o'zbek tili shevalari atlasini tuzish maqsadida savol-javob anketasini tuzdi. V.V.Reshetov Toshkent, F.Abdullaev Xorazm, M.Mirzaev Buxoro, A.aliev Namangan, A.Shermatov Qashqadaryo shevalari yuzasidan kartalar tuzdilar. Kartalarda o'zbek tili shevalarining o'ziga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari o'z ifodasini topgan. O'zbek shevashunosligida Lg sohasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilganligiga qaramasdan, hali o'zbek xalq shevalarining atlasi nihoyasiga etkazilgan emas.

Shunday qilib, bir til yoki uning bir qismiga ta'lqli o'ziga xos til xususiyatlarining yozib olinishi, ularning tarqalgan chegaralari belgilab chiqishib, kartalarga tushirilishshevashunoslik atlasining negizini tashkil etadi. Shu asosda nashr etilgan xaritalar jami esa shevashunoslik atlasini tashkil etadi. Lingvistik xarita ham, atlas ham Lg ning tarkibiy qismi bo'lib, uning ifoda vositasidir. Lg ning asosiy maqsadi o'zbek adabiy tilining yuzaga kelish xususiyatlari va rivojlanish yo'llarini, shevalar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni, til va lahjalarning taraqqiyot qonunlarini, va ularni o'zaro munosabatlarini, ta'sir doirasini aniqlab berishga qaratilgandir.

Atlas 3 xil turi mavjud:

1. Fonetik
2. Morfologik
3. Leksik

Fonetika bobida quyidagilarni qayd etish lozim: Toshkent shevasida **h** va **x** undoshlarining o'zaro aralash holda kelib, ko'proq **h** undoshi o'rnida ham **x** undoshining ishlatilishini hisobga olish lozim (Farhod-Farxod, xizmatchi-hizmatchi kabi)

Morfologiyada ko'zga tashlangan muhim xususiyatlardan biri – ga vada Samarqand va Buxoro shevalarida aralash holda kelib, ko'proq –ga qo'shimchasi bilan qo'llaniladi (avtobusga keldim, qo'limga bor kabi).

Leksikada ham muhim tomonlar mayjud: siyir, buzaq (qipchoq shevalarida); inak, go'sala (Buxoro-Samarqand) kabi.

Lingvistik geografiya tushunchasi va uning mohiyati. Bu termin lingvistika - tilshunoslik va geografiya kabi qismlardan iborat bo'lib, umuman sheva xususiyatlarini maxsus belgilar va raqamlarda ularni harita (atlas-karta)da aks ettirish bilan shug`ullanadigan dialektologiyaning bir bo'limidir, boshqacha aytganda, shevalarga xos bo'lgan xususiyatlarning tarqalish chegaralarini haritada ko'rsatishdir. Lingvistik geografiya shevalarni o'rganishning bir metodi hamdir.

Lingvistik geografiyani qo'llash orqali shevalardagi izoglossalar belgilanadi. **Izoglossa** lotincha *izo* - teng, *glossa* - til degan ma'nolarni bildiradi va bir dialekt yoki lahja doirasidagi yoki bir til, qarindosh tillardagi fonetiq leksik va grammatik xususiyatlarni o'hshashlik darajasiga ko'ra shartli belgilarda turli ranglardan foydalangan holda xaritada belgilab chiqiladi.

2. *Lingvistik geografiya tamoyillari.* Lingvistik geografiya o'ta ahamiyatli soha bo'lib, har bir sheva va dialekt haqida, uning ildiziy, tarixiy xususiyatlari, uning o'ziga xosligi bilan yaxlit ravishda tilshunoslik, tarix, etnografiya bilan shug`ullanadigan xodimlar, mutaxassislarga keng tanishtirish imkonini beradi. Lingvistik geografiyada, avvalo, o'rganilayotgan shevaning aholi geografiyasini aks ettiruvchi haritasi uchun asos bo'ladijan kontur harita olinadi va aholi punktlari raqamlari belgilab chiqiladi. Sheva faktlari uchun shartli belgilar tizimi ishlab chiqiladi. Izoglossalarning tarqalishini ko'rsatuvchi chiziqlarni tortish rejasi tayin qilinadi. Ranglar tanlanadi va bo'yash texnikasi belgilab olinadi.

3. *O'zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlanishi.* Bu soha o'tgan asrlarda Evropada yaxshi rivojlangan. XIX asrda franstuz dialektologi Jyul Jileron butun Franstiyani velosipedda aylanib chiqib, Franstuz tilining dialektal atlasini yaratgan. O'zbekistonda ham dialektologik atlas yaratish ishi ancha

rivojlangan. Bu sohada Sh.Shoabdurahmonov, Q.Muhammadjonov, A.Jo'raev, A.Shermatov, I.Ibrohimovlarning tadqiqotlari mavjud. Akademik Sh.Shoabdurahmonov O'zbekistonda birinchi bo'lib shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. Professorlar Q.Muhammadjonov Shimoliy o'zbek shevalarini, A.Shermatov quyi Qashqadaryo shevalarini, dotsent I. Ibrohimov esa Orol buyi o'zbek shevalarini haritalashtirgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Lingvistik geografiya nima ?
2. Lingvistik geografiya qachon vujudga kelgan va uning asoschilari kim?
3. Lingvistik geografiyaning shakllanishi va taraqqiyotiga munosib ulush qo'shganlar kim ?
4. Dialektologik atlas va xaritaning muhim ahamiyatga egaligi nimalarda namoyon bo'ladi ?
5. Lingvistik geografiyaning rivojlanish holati qay darajada ?

Adabiyotlar

- Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.
- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи, 1996.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. -Т.: Фан, 2005.

- Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўzlари. -Т.: Мухаррир, 2011.
- www.turk_dili.google.com.tr
- www.dersimiz.com
- Шерматов А. Лингвистик география нима ? Т., Фан. 1981.
- Шерматов А. Атлас узбекских народных говоров Кашкадарьинской области (учебное пособие для студентов факультета узбекского языка и литературы педагогических институтов). Т., 1979.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек тилининг диалектологик атласи. ЎТА, 1969, №3.

O'ZBEK TILINING QARLUQ LAHJASI

E‘ t i b o r q a r a t i l a d i g a n m a s a l a l a r:

- Qarluq-chigil-uyg`ur lahjasida so'zlashuvchi aholining yashash manzillari;
- Qarluq-chigil-uyg`ur lahjasining sheva guruhlari;
- Lahjaning fonetik, morfologik-leksik xususiyatlari;
- O'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida mazkur lahjaning tutgan o'rni.

Tayanch tushunchalar: qarluq-chigil-uyg`ur, lahja, fonetika, morfologiya, leksika.

O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg`ur lahjasi shahar shevalarini o'z ichiga oladi. Mazkur lahja birligining shakllanishi XI asrdan qoraxoniylar harakati bilan bog`langan. Tarixiy jihatdan qarluq-chigil-uyg`ur til birligiga Namangan, Toshkent, Andijon va O'zbekistonning boshqa tumanlaridagi aholi

shevalari taaluqlidir. Bu lahja O'zbekiston zaminidan tashqarida ham ko'p tarqalgan. Masalan, Qozog`istonning Chimkent, Sayram, Qorabuloq, Qoramurt, Ikon, Mankent; Qirg`iziston zaminidagi O'sh, Jallolobod, O'zgan va boshqa hududlar shular jumlasidandir. Bu lahjaga oid sheva vakillarini Afg`onistonda ham uchraydi. Ushbu lahja quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Farona guruhi. Bu guruhgaga Namangan shahar shevachi va shahar atrofidagi shevalar (masalan, Uychi shevasi) taalluqlidir. Shuningdek, Andijon shahar shevasi va Shahrixon shevasi, O'sh, O'zgan, Marg`ilon, Qo'qon shevalari kiradi.

2. Toshkent guruhi. Bunga Toshkent shahar shevasi, Toshkent viloyatidagi qipchoq shevalaridan boshqa shahar tipidagi shevalar, masalan, Parkent, Qoraxitoy va boshqa shevalar taalluqlidir.

3. Qarshi guruhi. Bu dialektga Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog` kabi (qipchoq shevalaridan tashqari) Qashqadaryodagi shu tipdagi shevalar kiradi. Mazkur guruhgaga Samarqand-Buxoro shevasi ham kiradi.

4. Shimoliy o'zbek guruhi. Bunga Ikon, Qorabuloq, Chimkent, Qoramurt, Turkiston, Chimkent, Sayram va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi. Mazkur shevalar o'g`uz tili xususiyatlarining ham bo'lishi bilan ajralib turadi.

Lahjaning fonetik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) **ch** va **t** undoshlari almashinadi: tish-chish kabi. Bu holat, ayniqsa, Toshkent, Marg`ilon, Andijon, Namangan shevalarida ko'p uchraydi;

2) qarluq-chigil-uyg`ur lahjasiga y lashgan shevalardandir;

3) lahjada unli tovush uyg`unligi yoki ohangdoshlik hodisasi uchramaydi. Shuning uchun ham ulardagi unlilar miqdori ko'p emas, ular 6-8 dan oshmaydi. Jumladan, Toshkent shevasida oltita (i, o, e, a, i, o'), Namangan

shevasida sakkizta (u, a, a, o, u, e), Samarqand-Buxoro shevasida oltita (o, e, a, `o', o') fonema mavjud;

4) hozirgi o'zbek adabiy tilida so'zning oxirida **q** kelganda, ushbu lahjada ham keladi: issiq-issi, tirnoq-tirno, sandiq-sandi kabi;

Morfologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) aniq hozirgi zamon fe`lni ifodalovchi ikki morfologik belgiga esa:

a) – *vot*, Namangan shevasida –*ut*: borvotman, borvotsan, qilutti (qilyapman), qiluttimiz (qilayapmiz) kabi, Namangan shakli –*ut* fonetik qonuniyatlar asosida o'zgargan bo'lib, u aslida –*vot* qo'shimchasiga borib taqaladi;

b) –*yap* qo'shimchasi Farg`ona vodiysidagi barcha shahar (Andijon, Marg`ilon, Qo'qon kabi) hamda o'sha shaharlarga yaqin bo'lgan qishloq shevalariga xosdir: *boryapman*, *kelayapman* kabi. Farg`ona shevalaridagi bu qo'shimcha Namangan shevasidan tashqari –*yap* shakliga borib taqaladi va Samarqand-Buxoro shevasidagi –*op* ko'rsatgichiga ham yaqinlashadi: *boropman*, *qilopman* kabi.

2) Samarqand-Buxoro shevalarida o'rinn-payt va jo'naliish kelishigi qo'shimchalari aralash holda qo'llanilishi ko'zga tashlanadi: *magazinni qoshiga saqlang* kabi;

3) ayrim hollarda tushum kelishigi –*di*, -*ti* qo'shimchasi bilan qo'llaniladi: *qora kokil qizdi* (qora kokilli qizni), *idti qopmas*, *otti tepmas deb bo'lmaydi* (Itni qopmas, otni tepmas deb bo'lmaydi) kabi;

4) ayrim hollarda o'rinn-payt kelishigi –*ta* qo'shimchasi bilan shakllanadi: *zavutta ishlatadi* (zavodda ishlaydi), *Toshkentta yashaydi* (Toshkentda yashaydi) kabi;

5) Toshkent, Samarqand, Namangan kabi shevalarda aniq o'tgan zamon fe`lining birinchi shaxs ko'pligi *-duk*, *-dug*, *-tuk* shakllarida qo'llaniladi. Qarluq-chigil-uyg`ur lahjasidagi shevalarning o'ziga xos morfologik xususiyatlari juda ko'p bo'lib, ularni yana davom qildirish va har bir shevaga xos xususiyatlarni ko'plab keltirish mumkin. Darhaqiqat, bu shevalarning har biri genetik jihatdan umumiy xususiyatlarga ega bulishi bilan birga, o'ziga xos tor sheva ko'rsatgichlariga ham egadir.

Hozirgi o'zbek adabiy tili qarluq-chigil-uyg`ur lahjasи asosida shakllangan. Shunga ko'ra, hozirgi o'zbek xalqi va uning tili, mavjud tasnifga ko'ra turkiy xalqlar oilasining qarluq guruhiga kiradi. O'zbekiston hududida o'g`uz va qipchoq urug`larining hamda ularning o'ziga xos shevalarining bo'lishi bu turkum turkiy urug`larning ham o'zbek xalqi va tilining shakllanishida hissasi borligini ko'rsatadi. Hozirgi o'zbek dabiy tiliga asos qilib qarluq urug` til xususiyatlari olingan bo'lsa-da (fonetik tomondan Toshkent shevasi, morfologik tomondan Farg`ona shevalari), adabiy til tarkibida o'g`uz tilining xususiyatlari (kelasi zamon *-djak* affiksi) va qipchoq tilining shakllari ham (-*yotir//yatir* affiksi) joy olgan.

Qarluq-chigil-uyg`ur lahjasи tarkibiga kiruvchi shevalarning har birida leksik birliklar adabiy tildagidan farqli ravishda u yoki bu darajada uchraydi. Misol: adabiy tildagi *ona* so'zi Toshkent shevasida *oyi*, Farg`ona, shevasida *ayya*, *buvi* shaklida faol qo'llaniladi. Yoki adabiy tildagi *qalampir* so'zi Toshkent shevasida *garndori*, Buxoro shevasida *qalampur*; adabiy tildagi *o'rik* so'zi Samarqand-Buxoro shevasida *zardoli* tarzida ifodalanadi. Shevalarning lug`at tarkibi juda boy bo'lib, ular o'zbek adabiy tili boyligini ta'min etuvchi eng muhim manba hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qarluq-chigil-uyg`ur lahjasida so'zlashuvchi aholining yashash hududlarini aytib bering ?
2. Lahjaning fonetik xususiyatlarini aytib bering ?
3. Lahjaning morfologik xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi ?
4. O'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqityotida bu lahjaning tutgan o'rni qanday bo'lgan ?

Adabiyotlar

- Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.
- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар.1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.
- Ўзбек шевалари морфологияси. -Т.: Фан, 1984.
- Ўзбек шевалари лексикаси. -Т.: Фан, 1966.
- Ўзбек шевалари лексикаси.Т.,Фан.1991.
- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи,1996.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. -Т.: Фан, 2005.
- Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўzlари. -Т.: Мухаррир, 2011.

- www.turk_dili.google.com.tr
- www.dersimiz.com
- Абдурахмонов Ф. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. Т., 1999.
- Миразев М. Ўзбек тилининг Бухоро групга шевалари. Т., 1969.

O'ZBEK TILINING O'G`UZ LAHJASI

E‘tibor qaratiladi gan masalalar:

- O`g`uz lahjasida so’zlashuvchi aholining yashash manzillari;
- O`g`uz lahjasining fonetik xususiyatlari;
- O`g`uz lahjasining morfologik xususiyatlari;
- O`g`uz lahjasining o’zbek adabiy tili luat tarkibini boyitishdagi o’rni.

Tayanch tushunchalar: o’g`uz, lahja, fonetika, morfologiya, leksika.

O`g`uz lahjasi vakillari Xiva, Xonqa, Shovot, Hazorasp, Urganch, To’rtko’l, Toshovuz, Qarabuloq, Mankent, Iqon kabi manzillarda, shuningdek, Buxoro viloyatining Qorako’l, Olot tumanlarida, Romitan tunidagi Qoqishtivon, Chilong`u, Sepata, Vopkent tumanidagi Chandir, Buxoro tumanidagi Losha, Xargo’sh, Xumin, Xumdonak qishlog`larida yashaydi. Mazkur lahja vakillari O’zbekistonning boshqa tumanlarida ham uchraydi. Masalan, Jizzax yaqinidagi Bodan qishloida. O`g`uz urulari sirasiga olot, bayot, jiag`chi, darg`ali, qoravul, sayot, solir, yersari, chandir, eski, burjoq kabilar kiradi. O`g`uz lahjasining eng muhim o’ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Fonetik xususiyatlar:

1) qipchoq shevalaridagi kabi bu lahjada ham juft unlilar mavjud: a-ä, i-ï, ö-o', u-ü kabi;

2) qisqa va cho'ziq unlilvr farqlanadi, ya'ni turkman tilidagi kabi qadimgi turkiy cho'ziq unlilar (birlamchi cho'ziq unlilar) mavjud: *at* (hayvon), *a:d* (ism), *o't* (o't, o'simlik), *o':t* (o't, olov) kabi;

3) so'z tarkibida unli tovushlarning tanglay ohangdoshligi saqlangan: *kishi-kishilar-kishilara* (kishilarga) kabi;

4) so'z boshida **t** va **k** tovushlari jaranglashadi: *til-dil*, *tilak-dilak*, *tuz-duz*; *ko'z-go'z*, *ko'k-go'k*, *keldi-geldi* kabi. Ba'zan o'rtada, ikki unli orasida ham **t** va **k** totsvushlari jaranglashadi: *yetti-yeddi*, *ko'kimtir-go'gimtir* kabi. Lekin bunday jarangli aytish hodisasi ro'y bermaydigan so'zlar ham bor: *turk*, *paxta*, *tesha*, *kamon*, *kema* va boshqalarda.

5) «bo'l» fe`lining boshidagi **b** undoshi tushib qolib, *o'l* tarzida talaffuz etiladi;

6) ikki unli tovush orasida **ch** undoshi ko'pincha jarangli talaffuz etiladi: achchiq – *aji*, ipning uchi – *ipin uji* kabi;

7) bir qator so'zlarda *öu//o'u* tipidagi diftong ancha keng qo'llaniladi: davlat – *do'ulat*, quvladi – *qo'uladi* kabi;

8) chuqur til orqa undoshi **q** so'z oxirida, ba'zan so'z o'rtasida tushiriladi: sariq – *sari*, sichqon – *sichon* kabi;

9) **a** unli **y** undoshi oldida **i** bilan almashinadi: ishlay – *ishliy*, qo'y may – *qo'ymiy* kabi.

Morfologik xususiyatlar:

1) kelishik qo'shimchalari qo'yidagicha:

Qaratqich kelishigi *-nij//-nij*, *-ni/-ni*, *-in/-in* qo'shimchalari orqali ifodalanadi: *mana uchragan kishini adini bilmayman* kabi. Qadimgi yozma yodgorliklarga xos bo'lgan *-in* tarixiy shakllari bilan ham ishlatiladi. Misol, *kerakli dashin arami yo'q; ko'pin ishi ko'l bo'lur.*

Tushum kelishigi uchun *-i/-i*, *-ni/-ni* affikslari qo'llaniladi: *qizni – qizi*, *ko'zni – go'zi*, *bolalarini-balalarin* kabi.

Jo'nalish kelishigining *-ga*, *-ka*, *-a*, *-na* shakllari mavjud: *tuyaga-diyaga*, *murodiga-murodina*, *yerga-yira* kabi. *-a* shakli o`g`uz lahjasida ancha faol qo'llanuvchi qo'shimchadir.

O'rinc-payt kelishigi *-da*, *-ta* qo'shimchasi bilan qo'llaniladi. So'z unli va jarangli undosh bilan tugasa *-da*, jarangsiz undosh bilan tugasa *-ta* qo'shimchasi qo'llaniladi: *bolada-balada*, *ko'zda-go'zda*, *kinoda-kinoda*, *qishda-qishta*, *itda-itta* kabi. O`g`uz lahjasida so'z-o'zak va negizlarning qattiq va yumshoqligiga amal qilgan holda chiqish kelishigining qo'shimchasi *-dan*, *-tan* ko'rinishiga ega: *poezddan-poyizddan*, *ishdan-ishtan* kabi;

2) kelasi zamon aniq fe`li ko'pincha *-jaq//jak* qo'shimchalari bilan shakllanadi: *barjaqman*, *getjäksän* kabi;

3) o'tgan zamon sifatdosh *-an* shaklida bo'ladi: *gitän*, *ölän* kabi;

4) to'liqsiz fe`l edi *-ti//-ti* shaklida ifodalanadi: *o'qigan edi – o'qianti*; *ko'rgan edi – go'ränti* kabi;

5) ko'plik son shaklining *-lar/-lär*, *ba'zan -ler* ko'rinishlari mavjud: *qo'ylar*, *gechchilär*, *dilekler* kabi.

O`g`uz lahjasidagi leksikasining asosiy qismini o'zbek adabiy tilida ishlatiladigan umumturkiy so'zlar tashkil qiladi. Shevalar leksikasida forscha-tojikcha so'zlar arabcha so'zlarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi. Mazkur

lahjaga tegishli ba‘zi so’zlarni quyida keltirib o’tamiz: *ayil* (qorinbog`), *nuqalav* (boks), *susaq* (cho’mich), *secha* (chumchuq), *qara yag`* (neft), *yarish* (musobaqa), *ulli* (katta) va b.

Shevalardagi ba‘zi arabcha so’zlar o’z ma’nosini o’zgartirgan holda ham qo’llaniladi. Masalan, g`assol (arabchada o’lik yuvadigan degan ma’noda) so’zi *ishyoqmas*, *landavur*, *ayyor*, *mug`ombir* ma’nosida qo’llaniladi. Yoki *mag`zava* so’zi arabchada *kir suvni* anglatsa, shevalarda *gap-so’zga tushunmaydigan* ma’nosiga ega.

Savol va topshiriqlar:

- 1.O`g`uz lahjası vakillari qayerlarda yashashadi ?
- 2.Uning fonetik xususiyatlarini ayting ?
- 3.Lahjaning morfologik xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
- 4.O’zbek adabiy tili taraqqityoida o`g`uz lahjası qanday o’rin tutadi ?

Adabiyotlar

- Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.: Ўқитувчи, 1978.
- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар.1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Т.: Фан, 1963.
- Ўзбек шевалари морфологияси. -Т.: Фан, 1984.
- Ўзбек шевалари лексикаси. -Т.: Фан, 1966.
- Ўзбек шевалари лексикаси.Т.,Фан.1991.

- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Т.: Ўқитувчи, 1996.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. -Т.: Фан, 2005.
- Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. -Т.: Мухаррир, 2011.
- www.turk_dili.google.com.tr
- www.dersimiz.com
- Ўзбек тили лексикологияси. Т., Фан, 1991.
- Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари. Т., Фан, 1969.
- Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. Т., 1964.

O'ZBEK TILINING QIPCHOQ LAHJASI

E‘tibor qaratiladigan masalalar:

- Qipchoq urug`lari va atamasi haqida muxtasar ma‘lumot;
- Qipchoq lahjasida so’zlashuvchilarning yashash manzillari;
- Qipchoq lahjasining o’rganilishi;
- Qipchoq lahjasining fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari;
- Qipchoq lahjasining o’zbek dabiy tili taraqqiyotidagi o’rni.

Tayanch tushunchalar: qipchoq, lahja, fonetik, morfologik, leksik.

Qipchoq urug`lari eng qadimgi urug`hlardan biri hisoblanadi. «Devonulug`otit turk» asarida Mahmud Koshg`ariy o’z davrida katta mavqega ega

bo'lgan *bajanak*, *o`g`uz*, *yamak*, *bashg`irt*, *basmil* kabi 20 til ichida qipchoq tilini ham qayd etib o'tadi. Turkiy tillarni 2 ta guruhga, ya'ni Sharqiy turklar va G`arbiy turklar tiliga ajratib, ularning tili o'rtasidagi farqni ko'rsatib o'tadi. Masalan, Sharqiy turklar *yunji* desa, G`arbiy turklar ushbu so'zni *junju* deb talaffuz qiladilar, deb aytib o'tadi.

Qipchoq urug`lari va tili xususida «Attuhfatuz zakiyati fil lug`otit turkiya» (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob kitob)da ham qimmatli tarixiy lingvistik ma'lumotlar mavjud. Ushbu asar XIII-XIV asr yodnomasi hisoblanadi.

Alishyer Navoiy davrida ham qipchoqlar ancha katta mavqega ega bo'lgan. Buni shoirning quyidagi bayti ham yaxshi isbot qiladi:

Ey Navoiy, menga bas ul sanami lo'livash,

Bekka qirchoqu og`ar, shohga qiyotu bilgut.

Ushbu baytdan *qipchoq*, *qiyot*, *bilgut*, *og`ar* singari o'zbek urug` va qabilalarining shoh va beklarga yaqin turuvchi mansabdar urug` va qabilalar ekanligiga ishora qilinganligini anglab olish mumkin.

«Shajarai turk» asarida Abulg`ozzi Bahodirxon «Qipchoq» etnonimi haqidagi ma'lumotni keltiradi.

O'zbek tilining qipchoq lahjasи har xil turkiy urug`-qabila guruhi vakillarini o'z ichiga oladi. Bular orasida *qipchoq*, *nayman*, *qangli*, *laqay*, *uyshin*, *qoraqalpoq*, *saroy*, *qo'ng`iroq*, *qiyot*, *do'rmon*, *arg`in*, *xitoy*, *tuyoqli* kabi ko'pgina urug`-qabilalar bor. O'zbek xalq baxshilarining aksariyati qipchoq lahjasida so'zlashuvchilardir.

Qipchoq lahjasining lingvistik xususiyatlari Fozi Olim Yunusov, V.V.Reshetov, M.Mirzaev, X.Doniyorov, F.Abdullaev, A.Shcherba, N.Rajabov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mazkur lahjada so'zlovchilar Ohangron vodiysida, Mirzacho'lda, O'ratega atrofida, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxandaryo va Shimoliy Xorazm kabi joylarda yashaydilar. Bu lahja vakillari Andijon, Namangan, Farona viloyatlarida ham uchraydi.

Qipchoq guruhidagi shevalarning ba'zi o'ziga xos xususiyatlari qo'yidagilardan iborat.

Fonetika sohasida:

- 1) ohangdoshlik hodisasi saqlangan: *könlüm* (ko'nglim), *qiliq* kabi;
- 2) adabiy tildagi **y** undoshi o'rnida **j** undoshi keladi: *yozdi – jazdi*, *yulduz – jüldüz*, *yantoq – jantaq* kabi;
- 3) o'nta juft unli mavjud: *ä-a*, *ii-u*, *ii-i*, *ö-o'*, *e,o*;
- 4) adabiy tildagi **g** undoshlari o'rnida qipchoq lahjasida **y** tovushi keladi: *kigiz-kiyiz*, *sigir-siyir*, *tegdi-tiydi*, *yiin-jiyin*, *sidi-siydi* kabi;
- 5) **q** va **k** undoshlari so'z oxirida tushib qoladi: *kichik – kichi*, *sariq – sari*, *tariq – tari* kabi;
- 6) diftong hodisasi mavjud: *echki – iechki*, *o'rdak – uo'rdak* kabi;
- 7) ba'zi so'zlarda so'z boshida **h** undosh tovushi orrtiriladi: ayvon – hayvon, arra – harra kabi;
- 8) so'z o'rtasida **q** undoshi **g`** ga o'tadi: *oqar – ag`ar*, *yoqar – yag`ar*, *chiq – chig`ib*, *qulog – qulag`i* kabi;

9) so'zda **q** va **g`** undoshlari v tovushi bilan anglashinadi: *tog` – tav, bog` – bav, bug`doy – buvday, ulug` – uluv, o'g`li – uvli, og`iz – aviz, sog` – sav* kabi.

Morfologiya sohasida:

1) *u, bu, shu* olmoshlari qadimgi turkiy tildagidek *ul, bul, shul* tarzida talaffuz qilinadi;

2) jo'nalish kelishigidagi kelishik olmoshlari quyidagicha qo'llaniladi: *mag`an* (menga), *sag`an* (senga), *ug`an* (unga) kabi;

3) aniq hozirgi zamon fe`li *-jatir/-jätir* va ba`zan *-vätil* kabi qo'shimchalar bilan hosil qilinadi: *keläjätir, kelävätil* kabi.

4) kelasi zamon sifatdoshi *-tian/-tigän* kabi qo'shimchalar bilan yasaladi: *jazatig`an, kelätigan* kabi.

5) kelishik qo'shimchalari o'zak-so'zning qattiq va yumshoqligiga ko'ra farqlanadi. Shunga muvofiq qaratqich kelishigining qo'shimchalari: *-ning/-niŋ, -ni/-ni, -din/-dīn, -tin/-tīn* bilan ifodalanadi. Masalan, *atamdin qadri o'tti, attiŋ jilavini mäkkäm üshlädi* kabi. Tushum kelishigi ma'nosi *-di/-dī, -ti/-tī, -ni/-nī* qo'shimchalari orqali ifodalanadi. Bulardan *-ni/-nī* qo'shimchasi unli tovushlar bilan tugagan so'zlarga qo'shilib keladi: *tav iechkisiňi üshläp aldi, atasini äytip keldi* kabi.

-di va-ti qo'shimchalari unosh tovush bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *pishakti qivip ketti, Kärimdī bazara jigar*. Ba`zan belgisiz ham qo'llaniladi: *suv ichip ke* (Suvni ichib kel) kabi.

Jo'nalish kelishigi uchun *-a\gä, -a\ä, -qa\gä* qo'shimchalaridan foydalilanadi: *balag`a bir jash to'ldi, üyümä baranim jo'q, o'chaqqa o't qala* kabi.

O'rın-payt kelishigi uchun *-da/-dä, -ta/-tä* qo'shimchalari qo'llaniladi: *däyräda* (daryoda), *qo'lda* (ko'lda), *qishta* kabi.

Chiqish kelishigining qo'shimchalari *-tan/-tän, -dan/-dän* hisoblanadi: *payızdan* (poyezddan), *chumchuqtan* (chumchuqdan) kabi.

6) o'rın-payt kelishigi oldidan (*i)n* tovushi orttiriladi: *bashinda, qashinda* kabi.

Leksika sohasida: *qalpoq, jayron, jun, tuya, meng, chavgon, o'rtoq, dag'i, qut, el, quroq, qalqon, aynak, manglay* (peshona), *bo'rk* (telpak), *emgak* (mehnat), *qo'noq, ko'lik* (transport), *mo'ncha* (hammom), *qangli* (ikki ildirakli arava) kabi leksik birliklar shu lahjaga tegishli so'zlardir.

O'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida boshqa lahja va shevalar qatori qipchoq lahjasini ham muhim o'rın tutadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qipchoq uruglari va tili xususida qaysi manbalarda ma'lumotlar uchraydi ?
2. Qipchoq lahjasining fonetik, morfologik xususiyatlari qaysi jihatlarda namoyon bo'lgan ?
3. O'zbek adabiy tilida qipchoq lahjasiga tegishli qaysi leksik birliklar qo'llaniladi ?
4. Qaipchoq lahjasiga xos yana qanday lingvistik xusmusiyatlarni bilasiz.

Adabiyotlar

- Решетов В. Б., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. -Т.:

Ўқитувчи, 1978.

- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 1-қисм. -Т.: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. -Т.: Фан, 1960.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Т.: Фан, 1962.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. -Т.: Фан, 2005.
- Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўzlари. -Т.: Мухаррир, 2011.
- www.turk_dili.google.com.tr
- www.dersimiz.com
- Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. Т., Фан, 1979.

Фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар

- Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
- Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
- Enazarov T., Karimjonova V. va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. - Toshkent: Universitet, 2012.

Кўшимча адабиётлар

- Алиев А. Ю., Назаров К. Н. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. -Тошкент: 1976.
- Аширбоев С. Ўзбек диалектологияси (Янги ўзбек ёзувида). - Тошкент: 2011.
- Бегалиев М.К. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеваси лексикаси. - Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2007.
- Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. -Тошкент:1991.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Тошкент: Фан, 1963.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. -Тошкент:Фан, 2005.
- Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. -Тошкент: Мухаррир, 2011. 466 бет.
- Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. -Тошкент: Ўқитувчи,1996.
- Решетов В. В. Ўзбек диалектларини монографик ўрганиш // ЎТА.1960. 1-сони.
- Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1962.
- Шоабдураҳмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. -Тошкент: Ўқитувчи, 1962.
- Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981.
- Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. –Қарши: Насаф, 2000.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар.1-қисм. -Тошкент: Фан, 1957.
- Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм. –Тошкент: Фан, 1960.

- Ўзбек шевалари морфологияси. -Тошкент: Фан, 1984.
- Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1966.
- Ўзбек шевалари лексикаси. –Тошкент: Фан, 1991.
- Ўзбек диалектологияси. ЎУМ, ЎзМУ 2011. Ўзбек филологияси факультети кутубхонаси.

Электрон манбалар

- http://www.ut.uz/eng/today/europe_recognizes_her_discovery.mgr
- http://www.uzbekistan.be/press-releases/14-2008.html#_6 SOCIETY
- <http://www.sfs.unituebingen.de/~lothar/lexbuch/Seminar01/skripte/onomasio.html>
- <http://www.schneid9.de/sprache/linguistik/ling11.pdf>
- <http://www.uni-leipzig.de/~fsger/materialien/Texte/Lexikologie.pdf>

Yoqub SAIDOV

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

Муҳаррир: *F.Муродов*

Техник муҳаррир: *Г.Самиева*

Мусахҳих: *A.Қаландаров*

Саҳифаловчи: *M.Ортиқова*

Нашриёт лицензияси АІ № 178. 08.12.2010. Оригинал
– макетдан босишига рухсат этилди: 18.02.2022.
Бичими 60x84. Кегли 16 шпонли. «Times New
Roman» гарн. Офсет босма усулида босилди. Офсет
босма қофози. Босма тобоғи 6. Адади 100. Буюртма
№188.

Бухоро вилоят Матбуот ва ахборот бошқармаси
“Durdon” нашриёти: Бухоро шаҳри М.Иқбол кўчаси 11-уй.
Баҳоси келишилган нарҳда.

“Sadiddin Salim Buxoriy” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Бухоро шаҳри М.Иқбол кўчаси 11-уй. Тел.: 0(365) 221-26-45
